

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
IJTIMOIY-IQTISODIY FAKULTET

Ijtimoiy ish yo‘nalishi

14.65-guruh bitiruvchisi Mirzaakbarov Doston Davlat o‘g‘lining

**“O‘zbekistonda ijtimoiy sohani rivojlanishida davlatning
roli”**

(Ta’lim tizimi misolida) mavzusidagi

BITIRUV

MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar: i.f.n., dotsent
M.Abdurahmonova

Farg‘ona – 2018

MUNDARIJA

	KIRISH	
I BOB	BOZOR IQTISODIYOTIGA O‘TISHDA TA’LIM TIZIMINI TARTIBGA SOLISH	
1.1	Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va uni qabul qilish zaruriyati, maqsadi va vazifalari.	
1.2	Ta’lim tizimini tartibga solish maqsadida kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish bosqichlari.	
II BOB	O‘ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TA’LIM, UMUMIY O‘RTA TA’LIM VA O‘RTA MAXSUS TA’LIMNI RIVOJLANISH MASALALARI	
2.1	Maktabgacha ta’lim tizimidagi islohotlarni amalga oshirish zarurligi va vazirlikning vazifalari	
2.2	Maktabgacha ta’lim vazirligiga davlat-xususiy sheriklik asosida maktabgacha ta’lim muasssalarini tashkil etish mexanizmlari.	
2.3	Umumiy o‘rta ta’lim va o‘rta maxsus ta’lim tizimidagi islohotlarni yanada rivojlantirish masalalari	
III BOB	O‘ZBEKISTONDA OLIY TA’LIM TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI	
3.1	Oliy ta’limni rivojlantirishda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning mazmun va mohiyati.	
3.2	O‘zbekistonda Oliy ta’lim tizimini yanada isloh qilish va takomillashitirish orqali yoshlar bandligini ta’minlash yo‘nalishlari.	
	XULOSA	
	TAKLIF VA TAVSIYALAR	
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI	
	ILOVALAR	

KIRISH

Mavzuni dolzarbli. O‘zbekistonda bugungi shiddat bilan modernizatsiya, global rivojlanish kechayotgan bir jarayonda davlat tomonidan ta’lim tizimini isloh qilish orqali boshqarishining ahamiyati juda muhimdir. Ta’lim-tarbiya tizimini isloh qilish, kadrlar tayyorlashni zamon talablari darajasiga ko‘tarish sohasida muhim chora-tadbirlar amalga oshirilmokda. Jumladan, “Ta’lim to‘g‘risida”gi va “Kadrlar tayyorlash milliy Dasturi”ning yangi loyixalari ustida ishlar olib borilmoqda, ya’ni takomillashtirilmoqda.

SHuningdek, maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish uchun innovatsion tavsifga ega bo‘lgan “Davlat – xususiy sherikchilik to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni bor bo‘lgan maktabgacha ta’limni yanada rivojlantirish, yangilarini shakllantirish va bunda davlatning rolini sherikchilik asosida kuchaytirishga qaratilgan. SHuningdek xukumat rahbari SH.Mirziyoevning 2018 yil 28 fevraldagi PQ-3571-sonli «Davlat maktabgacha ta’lim muassasalari xodimlarining ayrim toifalari mehnatiga haq to‘lashni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarori ular faoliyatini rag‘batlantirishga undaydi, bu esa davlat tomonidan maktabgacha ta’lim muassasalari xodimlarini ijtimoiy ximoyasini ta’minlaydi.

O‘zbekiston Prezidentimiz SH. Mirziyoevning 2017 yilning 16 iyunida Toshkent shahrining Uchtepa tumaniga tashriflari asosida hududlarda olib borilgan qat’iy islohotlar natijasida majburiy to‘qqiz yillik ta’limdan keyingi ta’lim, ixtiyoriy 11 yillik yoki 9-sinfdan so‘ng akademik letseylarda yoki kasb-hunarga yo‘naltirilgan kollejlardagi ta’limga aylantirildi, ya’ni o‘quvchiga va uning ota-onasiga to‘qqiz yillik majburiy ta’limdan keyingi ta’limni tanlash imkoniyati yanada kengaytirildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2909-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirining O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Oliy ta’lim tizimini yanada

rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-son qarorining ijrosi to'g'risida 2017 yil 24 aprel №244-son buyrug'lari nomlaridan ham ko'rinib turibdiki oliy ta'lim tizimini, oliy ta'limdan keyingi ta'limni rivojlantirish orqali ijtimoiy sohani rivojlantirishga qaratilgan e'tiboridir.

Oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari bandligini ta'minlashdagi hamkorlikning muhim yo'nalishi sifatida oliy ta'lim, fan va ishlab chiqarish o'rtasida innovatsion korporativ hamkorlikni o'rnatish maksadiga SH.M. Mirziyoevning "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarinng ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017 yil 27 iyuldagi PQ-3151-sonli Qarori hamda O'zbekiston Respublikai Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 12 yanvar oyidagi "Ilmiy innovatsion ishlanma va texnologiyalarni ishlab chiqarishga tatbiq etishning samarali mexanizmlarini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi VMQ-24-sonli qarorlari asos bo'ldi va bugungi kunda ushbu qarordagi vazifalar bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda.

YUqorida aytilgan davlatning ta'lim tizimini boshqaruvidagi roli asosida takomillashuv sifatlariga ega shaxsni shakllantirishga nafaqat ta'lim mazmuni, balki qo'llanilayotgan texnologiyalar, o'quv jarayoni, o'qish va bilishning o'qitish texnologiyasini tatbiq etishdan ham iboratdir.

SHuning uchun ushbu tanlangan bitiruv malakaviy ishining mavzusi mavjud ta'lim tizimini bozor mexanizmi orkali takomillashtirish, yangilarini shakllantirish orkali ta'lim sifatini ortishiga erishishga qaratilgan bo'lib, dolzarb hisoblanadi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Davlatning uzluksiz ta'lim tizimi, jumladan, oliy ta'lim tizimi boshqaruvining nazariy asoslari, uslubiy-amaliy jihatlar, axborot-kommunikatsion texnologiyalar ta'lim sohasiga shiddat bilan kirib kelishining globalizatsiya bilan bog'liq tomonlari g'arb va MDH olimlarining tadqiqotlarida ancha keng yoritilgan.

Xususan g'arbiy Evropaning ko'zga ko'ringan tadqiqotchilari O.Graumann, P.Senge, Itel de-Sol Pul¹ davlat tomonidan oliy ta'lim tizimi boshqaruv samaradorligini oshirishdagi tarixiy bilimlar rivojidagi evolyusion bog'lanish, uzluksiz ta'limning Oliy ta'lim tizimi takomilidagi o'rni masalalarini o'rgangan bo'lsalar, F.V.Ferrari, G.Keller² ta'limni insonparvarlashuvini va baynalminallashuv sharoitida boshqarishni o'ziga hos uslublarini tadqiq etganlar.

Davlatning ta'limdagi global jarayonlarning boshqaruv tizimiga ta'siri o'quv jarayonining takomillashtirishning yangi zamonaviy texnologiyalar bilan bog'liqligi muammolari xususida MDH mamlakatlari olimlari konseptual qarashlarga ega chuqur ilmiy-nazariy asosga xos bo'lgan izlanishlar olib borganlar.

Jumladan ta'lim menejmenti takomillashuvi, oliy ta'lim sifatini boshqarishning texnologik omillari xususida E.YU.Ignatev, L.A.Andreev, V.I.Soldatkin, V.P.Koryachko, R.A. Toganov, A.M. Novikov, V.A.Berdovskiy³ izlanishlarida, uzluksiz ta'limni boshqarishda, an'anaviy g'oyalarning konseptual asoslari V.P.Tixomirov, A.Xrabryx, V.P.Zinchenko⁴ tadqiqotlarida davlatning Oliy ta'limda innovatsion jarayonlar va uning ta'lim sifati

¹ Грауманн О. Менеджмент средней и высшей школы. 100 новых понятий. Hildeseheim: Universitat-Verlang Hildeseheim. 2004, С-211; Сенге П. Пятая дисциплина искусство и практика самообучающейся организации (пер. с англ) М.: ЗАО Олимп-Бизнес 2003, С-37; Итель де-Сол Пул. Использование инструментов технологии свободы. М.: НИИВО, 2004, С-34

² Феррари Ф.В. Analyzing the knowledge management through the product development process journal of Knowledge Management-2004, Kol. 8 №1; Keller G. Academic State of the Management Revolution in American Higher Education Baltimore Maryland: John Hopkins University Press, 1983

³ Игнатьева Е.Ю. Менеджмент знания в управлении качеством образовательного процесса в высшей школе Великой Новгород-2008; Андреева А.А. Солдаткин В.И. Дистанционное обучение: сущность, технология. Организация М. МЭСИ-1999; Крячко В.П. Тоганов Р.А. Тоганов А.А. Основные тенденции развития информационного, методического и инструментального обеспечения системы менеджмента качества образования РГУ, Рязань, 2006; Новикова А.М. Российское образование в новой эпохе: порождения, наследия, Викторы развития: публицистическая монография М. Эгвес, 2000; Бердовский В.А. Теория и практика организационно-методического обеспечения образования (текст) дисс.доктора пед наук СПб РГПУ, 1999

⁴ Тихомиров В.П. От классического университета к электронному: eUniversity и далее к паркам знания. 5-ая московская международная выставка и конференция по электронному обучению eLearnExpo 2008 Храбрых А. Держи дистанцию! // Дистанционное образование, 1999, №3; Зинченко В.П. Distant content... И образование Высшее образование в России, 2005, №7.

boshqaruviga ta'siri masalalari N.F. Sayfullin, A.V.Berestov, B.Santo⁵ qarashlarida ko'zga tashlanadi.

SHuningdek ta'limni boshqarishdagi yangi pedagogik texnologiyalarni o'rni va ahamiyati tadqiqotchilar A.I.Prigojin, V.P. Bespalko, V.S. Tolstoy, P.O.Kudryavsev, G.K. Selevko, S.A.Stepanov⁶ ishlarida yoritilgan.

Ta'lim tizimini boshqarish va zamonaviy interfaol uslublarni joriy etish muammolarini ayrim yo'nalishlari O'zbekistonlik olimlarning tadqiqotlarida ham o'z ifodasini topgan.

Xususan, R.X.Jo'raev, E.Z.Imomov, I.I.Pirmatov, A.A.Tursunov, N.N.Azizxo'jaevlar⁷ yangi axborot kommunikatsion texnologiyalarni ta'lim sifatini boshqarishdagi o'rnini o'rgangan bo'lsalar, dars jarayonida elektron darsliklarni o'quv jarayonini tartibga solish hamda sifatini oshirishdagi ahamiyati S.S.G'ulomov, SH.A. Ayupov, A.X. Abdullaev, O.X.To'raqulov⁸ tadqiqotlarida atroflicha qarab chiqilgan.

SHuningdek, masofaviy iqtisodiy ta'lim muammosi bo'yicha ham respublikamizni taniqli olimlari G'ulomov S.S., Romanov L.N., Alimov R.X., Toropsov V.S., Xodiev B.YU., Alimov K.A., Begalov B.A. Grigorovich D.B.⁹ va boshqalar izlanishlar olib borgan.

⁵ Сайфуллин Н.Ф. Культура инноваций. Дистонционное образование-2005, №5; Берестов А.В. инновационная деятельность в высшей школе современной России (текст) дисс. канд. соц. наук, М.: РГБ, 2005; Санто Б. Инновация и глобальный интеллектуализм. Инновация -2006, №9

⁶ Пригожин А.И. Философия нестабильности вопросы философии-1991; Беспалько В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения Москва -1995; Кудряцев П.О. Проблемное обучение. Исток и сущность знание, 1991; Селевко Г.К. Дифференциация обучения Ярославль, 1995
Степанов С.А. Терминалогический словарь в области управления качеством высшего и среднего профессионального образования. СПб: СПбГЭТУ «ЛЭТИ», 2005;

⁷ Жўраев Р.Х. Ведущие тенденции образования в XXI веке. Узлуксизтаълим, илмий-услугий журнал, Тошкент-2008, №3; Имомов Э.З. Пирматов И.И. Турсунов А.А. Стандарты образования и роль новых информационных технологий. Таълим муаммолари илмий-услугий ютуқлар ва илғор тажрибалар. Олий махсус мактаб муаммолари институти №1-2, 1997; Азизхўжаева Н.Н. Педагогик технологиялар ва педагогик махорат. Тошкент-2006.

⁸ С.С.Гуломов, Ш.А.Аюпов, А.Х.Абдуллаев. Таълим тизимида ахборот-коммуникация технологияларини жорий этишдаги стратегик ва устувор йўналишлар// Таълимватарбия 1-2, 2003; О.Х.Тўракулов. Замонавий компьютер тармоқлари бўйича мультимедияли электрон ўқув-қўлланмалар яратиш технологияси.// Узлуксизтаълим 2006, №4

⁹ Гулямов С.С, Романов А.Н, Алимов Р.Х, Торопцов В.С, Ходиев Б.Ю, Алимов К.А, Бегалов Б.А. Григорович Д.Б, Дистонционное экономическое образование. Ташкент, изд-во «Шарк»-2003

Oliy ta'lim tizimini davlat tomonidan boshqarishdagi xorij tajribalari bo'yicha T.Teshaboev, P.Xoshimov, A.YUsupovlar¹⁰ muayyan tadqiqotlarni amalga oshirganlar. YUqorida o'rganilgan tadqiqotlarda asosan respublikamizda oliy ta'lim tizimi boshqaruvining zamonaviy texnologiyalar bilan aloqador tomonlarini ilmiy-nazariy taxlil etishga ko'proq e'tibor qaratilgan, ammo ta'lim tizimining takomillashvidagi ob'ektiv asosi va sub'ektiv omillari, globallashuv, modernizatsiya sharoitida ta'lim tizimining rivojlantirishdagi davlatning roli orqali fikrlash qobiliyatini oshirish jixatlari yoritilmagan. Ana shu muammolarni muayyan ma'noda xal etish urinish bitiruv malakaviy ishining mavzusini tanlashga asos bo'ldi.

Bitiruv malakaviy ishining maqsad va vazifalari. O'zbekistonda globallashuv, modernizatsiya sharoiti kechayotgan bir davrda uzluksiz ta'lim tizimining rivojlantirishdagi davlatning rolini bozor mexanizmidagi ahamiyatini ko'rsatib berish.

Bitiruv malakaviy ishining maqsadidan kelib chiqib, quyidagi vazifalar belgilandi:

- uzluksiz ta'lim tizimida joriy etilayotgan innovatsion jarayonlarni nazariy jihatdan o'rganish, tahlil qilish va umumlashtirish;
- maktabgacha ta'lim tizimida islohotlar faoliyati xususiyatlarining chuqurlashtirishni dolzarbligini asoslash;
- maktabgacha ta'lim tizimini yanada rivojlantirish maqsadidagi davlat-xususiy sherikchilik to'g'risidagi modellarini ilmiy asoslash;
- respublikada umumiy o'rta ta'lim tizimi 12 (9+3)ni tubdan isloh etilishini ilmiy-amaliy yoritish;
- oliy ta'lim va undan keyingi ta'lim turlarini takomillashuvi jihatlarini yoritish;
- maktabgacha ta'lim tizimini takomillashtirish va oliy ta'lim muassasalari

¹⁰ Тешабоев Т. Олий таълим муассасаларида инновацион фаолият. Жамиятбаҳошқарув №2, 2009; Хошимов П. Система образования во Франции. Иқтисодиёт ва таълим журнали №3, 2003; Юсупов А. Образование как фактор повышения конкурентоспособности страны. Иқтисодиёт ва таълим №3, 2004

bitiruvchilarni bandligini ta'minlash yuzasidan ilmiy-uslubiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqot ob'ekti: O'zbekistondagi maktabgacha ta'lim va uzluksiz ta'lim tizimi

Tadqiqot predmeti: O'zbekistonda ta'lim tizimidagi islohotlarni jadalashtirishga qartilgan davlatning o'rnini.

Bitiruv malakaviy ishning metodologik va uslubiy asoslari. O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmon va qarorlari, Vazirlar Mahkamasining qaror va farmoyishlari, Respublika Prezidenti SH.Mirziyovning ma'ruzalaridagi ta'limni rivojlantirish va samaradorligini oshirish masalalariga oid g'oyalari hamda xorijiy va mahalliy iqtisodchi olimlarning mavzuga dahldor ilmiy ishlari tashkil etadi. Bitiruv malakaviy ishda O'zbekiston Respublikasi Davlat Statistika qo'mitasi ma'lumotlari hamda internet ma'lumotlaridan foydalanilgan.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy-amaliy ahamiyati. Bitiruv malakaviy ishida olingan tahliliy natijalardan ta'lim tizimini rivojlantirishda hamda dars samaradorligini oshirishda uslubiy manba sifatida foydalanish mumkin.

Ishdagi nazariy va uslubiy natijalardan o'quv kurslarida, jumladan, ijtimoiy menejmentda, ijtimoiy ishda menejment, ijtimoiy ishning iqtisodiy asoslari, iqtisodiy ta'lim, mehnat bozori va bandlik, ijtimoiy siyosat sohalarini o'zlashtirishda, shuningdek boshqaruv xodimlarini malaka oshirishni samarali yo'lga qo'yishda foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Bitiruv malakaviy ishining tarkibi. "O'zbekistonda ijtimoiy sohaning rivojlanishida davlatning roli" (Ta'lim tizimi misolida) mavzuidagi bitiruv malakaviy ishi kirish, 3 ta bob, 7 ta paragraf, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ruyxati, ilovalardan iborat. Ishning asosiy qismi 68 betdan iborat bo'lib, oliy ta'lim, maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta, akadem litsey va kasb-hunar kollejlari ta'limining asosiy ko'rsatkichlaridan iborat 4 ta jadval, 1 ta diagramma, 3 ta chizma, 20 ta mavzuga doir rasmlar hamda 5 ta ilovalarni qamrab olgan.

I-BOB. BOZOR IQTISODIYOTIGA O‘TISHDA TA’LIM TIZIMINI TARTIBGA SOLISH.

1.1. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi va uni qabul qilish zaruriyati, maqsadi va vazifalari.

O‘zbekistonda ijtimoiy sohani tartibga solinishi orqali milliy iqtisodiyotning takomillashuviga erishilishi, bunda esa davlatning roli, uning ushbu sohaga aralashuvi zarurligi va muhimligi sir emas. Chunki bugungi kunda jahonda kechayotgan globalshuv jarayoni, O‘zbekistonni jahon hamjamiyatidagi tutgan o‘rniga ta’sir etadi, shu jihatdan bugungi kunda ijtimoiy sohani takomillashuvi zaruriyat xisoblanadi.

Ijtimoiy soha milliy iqtisodiyotning bajaruvchi tarmoqlari (1-chizma)ni¹¹ o'z ichiga oladi.



Ushbu bitiruv malakaviy ishida mustaqil O'zbekistonning milliy iqtisodiyoti tarmoqlaridan bo'lgan ta'lim sohasini kelib chiqishi, bugungi kundagi ahvoli va takomillashtirish masalalariga e'tibor qaratildi.

Bugungi kunda oldimizga qo'ygan buyuk maqsadlarimizga ezgu niyatlarimizga erishishimiz, jamiyatimizning yangilanishi, xayotimizning taraqqiyoti va istiqbolli amalga oshirilayotgan islohotlarimiz, davlatning ta'lim tizimini takomillashtirishdagi roli, ahamiyati, rejalarimizning samarasi taqdiri - bularning barchasi, avvalambor, zamon talabiga javob beradigan yuqori malakali, ongli mutaxassis kadrlar tayyorlash muammosi bilan chambarchas bog'liqligini barchamiz anglab etmoqdamiz. SHu jixatdan davlatning uzluksiz ta'lim tizimi, jumladan, oliy ta'lim tizimi boshqaruvining nazariy asoslari, uslubiy-amaliy jihatlari, axborot-kommunikatsion texnologiyalar ta'lim sohasiga shiddat bilan kirib kelishining globalizatsiya bilan bog'liq tomonlari g'arb va MDH olimlarining tadqiqotlarida ancha keng yoritilgan.

Xususan g'arbiy Evropaning ko'zga ko'ringan tadqiqotchilari O.Graumann, P.Senge, Itel de-Sol Pul¹² davlat tomonidan oliy ta'lim tizimi

¹¹ Чизма иқтисодий адабиётлар асосида муаллиф томонидан ишлаб чиқилди.

boshqaruv samaradorligini oshirishdagi tarixiy bilimlar rivojidagi evolyusion bog‘lanish, uzluksiz ta’limning Oliy ta’lim tizimi takomilidagi o‘rni masalalarini o‘rgangan bo‘lsalar, F.V.Ferrari, G.Keller¹³ ta’limni insonparvarlashuvini va baynalminallashuv sharoitida boshqarishni o‘ziga hos uslublarini tadqiq etganlar.

Davlatning ta’limdagi global jarayonlarning boshqaruv tizimiga ta’siri o‘quv jarayonining takomillashtirishning yangi zamonaviy texnologiyalar bilan bog‘liqligi muammolari xususida MDH mamlakatlari olimlari konseptual qarashlarga ega chuqur ilmiy-nazariy asosga xos bo‘lgan izlanishlar olib borganlar.

Jumladan ta’lim menejmenti takomillashuvi, oliy ta’lim sifatini boshqarishning texnologik omillari xususida E.YU.Ignatev, L.A.Andreev, V.I.Soldatkin, V.P.Koryachko, R.A. Toganov, A.M. Novikov, V.A.Berdovskiy¹⁴ izlanishlarida, uzluksiz ta’limni boshqarishda, an’anaviy g‘oyalarning konseptual asoslari V.P.Tixomirov, A.Xrabryx, V.P.Zinchenko¹⁵ tadqiqotlarida davlatning Oliy ta’limda innovatsion jarayonlar va uning ta’lim sifati boshqaruviga ta’siri masalalari N.F. Sayfullin, A.V.Berestov, B.Santo¹⁶ qarashlarida ko‘zga tashlanadi.

¹² Грауманн О. Менеджмент средней и высшей школы. 100 новых понятий. Hildeseheim: Universtat-VerlangHildesehemim. 2004, С-211; Сенге П. Пятая дисциплина искусство и практика самообучающейся организации (пер. с англ) М.: №АО Олимп-Бизнес 2003, С-37; Итель де-Сол Пул. Использование инструментов технологии свободы. М.: НИИВО, 2004, С-34.

¹³ ФеппариФ.В. Analizing the knovslede management through the product development process journal of Knowledge Managament-2004, Kol. 8 №1; Keller G. AcademisStatagu: The Managament Revolution in Amerigan Higher Edication Baltimore Maryland: JohnHopkinsUniversity Press, 1983.

¹⁴ Игнатъева Е.Ю. Менеджмент знание в управлении качеством образовательного процесса в высшей школе Великой Новгород-2008; Андреева А.А. Солдаткин В.И. Дистонционное обучение: сущность, технология. Организация М. МЭСИ-1999; Крячко В.П. Тоганов Р.А. Тоганов А.А. Основные тенденции развития информационного, методического и инструментального обеспеченный системы менеджмента качества образования РГУ, Рязань, 2006; Новикова А.М. Российское образование в новой эпохе: породонсы, наследия, Викторы развития: публистическая монография М. Эгвес, 2000; Бордовский В.А. Теория и практика организауионно-методического обеспечения образования (текст) дисс.доктора пед наук СПб РГПУ, 1999

¹⁵ Тихомиров В.П. От классического унивреситета к электронному: eUniversity и далее к паркам знание. 5-ая московская международная выставка и конференция по электронному обучению elearnExpo 2008; Храбрых А. Держи дистонцию! // Дистонционное образование, 1999, №3; ЗинченкоВ.П. Distant content.... И образование Высшее образование в России, 2005, №7.

¹⁶ Сайфуллин Н.Ф. Культура инноваций. Дистонционное образование-2005, №5; Берестов А.В. инновационная деятельность в высшей школе современной России (текст) дисс. канд. соц. наук, М.: РГБ, 2005; Санто Б. Инновация и глобальный интелектуализм. Инновация -2006, №9

SHuningdek ta'limni boshqarishdagi yangi pedagogik texnologiyalarni o'rni va ahamiyati tadqiqotchilar A.I.Prigojin, V.P. Bepalko, V.S. Tolstoy, P.O.Kudryavsev, G.K. Selevko, S.A.Stepanov¹⁷ ishlarida yoritilgan.

Ta'lim tizimini boshqarish va zamonaviy interfaol uslublarni joriy etish muammolarini ayrim yo'nalishlari O'zbekistonlik olimlarning tadqiqotlarida ham o'z ifodasini topgan.

Xususan, R.X.Jo'raev, E.Z.Imomov, I.I.Pirmatov, A.A.Tursunov, N.N.Azizxo'jaevlar¹⁸ yangi axborot kommunikatsion texnologiyalarni ta'lim sifatini boshqarishdagi o'rnini o'rgangan bo'lsalar, dars jarayonida elektron darsliklarni o'quv jarayonini tartibga solish hamda sifatini oshirishdagi ahamiyati S.S.G'ulomov, SH.A. Ayupov, A.X. Abdullaev, O.X.To'raqulov¹⁹ tadqiqotlarida atroflicha qarab chiqilgan.

SHuningdek, masofaviy iqtisodiy ta'lim muammosi bo'yicha ham respublikamizni taniqli olimlari G'ulomov S.S., Romanov L.N., Alimov R.X., Toropsov V.S., Xodiev B.YU., Alimov K.A., Begalov B.A. Grigorovich D.B²⁰. va boshqalar izlanishlar olib borgan.

Oliy ta'lim tizimini davlat tomonidan boshqarishdagi xorij tajribalari bo'yicha T.Teshaboev, P.Xoshimov, A.YUsupovlar²¹ muayyan tadqiqotlarni amalga oshirganlar. YUqorida o'rganilgan tadqiqotlarda asosan respublikamizda oliy ta'lim tizimi boshqaruvining zamonaviy texnologiyalar bilan aloqador

¹⁷ Пригожин А.И. Философия нестабильности вопросы философии-1991; Беспалько В.П. Педагогика и прогрессивные технологии обучения Москва -1995; Кудряцев П.О. Проблемное обучение. Исток и сущность знание, 1991; Селевко Г.К. Дифференциация обучения Ярославль, 1995; Степанов С.А. Терминалогический словарь в области управления качеством высшего и среднего профессионального образования. СПб: СПбГЭТУ «ЛЭТИ», 2005

¹⁸ Жўраев Р.Х. Ведущие тенденции образования в XXI веке. Узлуксизтаълим, илмий-услугий журнал, Тошкент-2008, №3; Имомов Э.З. Пирматов И.И. Турсунов А.А. Стандарты образования и роль новых информационных технологий. Таълим муаммолари илмий-услугий ютуқлар ва илғор тажрибалар. Олий махсус мактаб муаммолари институти №1-2, 1997; Азизхўжаева Н.Н. Педагогик технологиялар ва педагогик махорат. Тошкент-2006.

¹⁹ С.С.Ғуломов, Ш.А.Аюпов, А.Х.Абдуллаев. Таълим тизимида ахборот-коммуникация технологияларини жорий этишдаги стратегик ва устувор йўналишлар// Таълимватарбия 1-2, 2003.; О.Х.Тўрақулов. Замонавий компьютер тармоқлари бўйича мультимедияли электрон ўқув-қўлланмалар яратиш технологияси.// Узлуксизтаълим 2006, №4.

²⁰ Гулямов С.С, Романов А.Н, Алимов Р.Х, Торопцов В.С, Ходиев Б.Ю, Алимов К.А, Бегалов Б.А. Григорович Д.Б, Дистонционное экономическое образование. Ташкент, изд-во «Шарк»-2003.

²¹ Тешабоев Т. Олий таълим муассасаларида инновацион фаолият. Жамият ва бошқарув №2, 2009; Хошимов П. Система образования во Франции. Иқтисодиёт ва таълим журнали №3, 2003; Юсупов А. Образование как фактор повышения конкурентоспособности страны. Иқтисодиёт ва таълим №3, 2004.

tomonlarini ilmiy-nazariy taxlil etishga ko'proq e'tibor qaratilgan, ammo ta'lim tizimining takomillashidagi ob'ektiv asosi va sub'ektiv omillari, globallashuv, modernizatsiya sharoitida ta'lim tizimining rivojlantirishdagi davlatning roli orqali fikrlash qobiliyatini oshirish jixatlari yoritilmagan.

O'zbekiston Respublikasi siyosiy mustaqillikni qo'lga kiritgach, ijtimoiy hayotimizning barcha jabxalarida tub islohotlar amalga oshirila boshlandi. Totalitar boshqaruv usuli asosida ish yuritilayotgan ta'lim tizimida ham so'nggi o'n yilliklar davomida yuzaga kelgan muammolarni hal etish vazifasi Respublika hukumati hamda mutasaddi tashkilotlarni ta'lim tizimida ham jiddiy o'zgarishlarni amalga oshirishga undadi. Bu boradagi sa'i-harakatlarning samarasi sifatida 1992 yil iyul oyida mustaqil O'zbekistonning ilk «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni qabul qilindi. Mazkur qonun mazmunida Respublika ta'limi tizimi, uning asosiy yo'nalishlari, maqsad, vazifalari, ta'lim bosqichlari va ularning mohiyati kabi masalalar o'z ifodasini topdi. Biroq, 1997 yilga kelib, O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni va uning mazmunida ilgari surilgan g'oyalarning amaliyotga tadbiqui tahlil etilganda bu borada muayyan kamchiliklarga yo'l qo'yilganligi aniqlandi. O'tkazilgan tahlil natijalariga ko'ra, ta'lim tizimida olib borilayotgan islohot aksariyat o'rinlarda chuqur ilmiy asoslarga ega bo'lmaganligi ma'lum bo'ldi hamda kadrlar tayyorlash tizimini isloh qilish **zarurligi** belgilandi. SHu bois O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining IX sessiyasida yangi tahrirdagi O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qabul qilindi.

Har qanday mamlakatning kuchi uning fuqarolarining ma'naviy etukligi, intellektual salohiyatga egaligi bilan belgilanadi. Fuqarolarning ma'naviy etukligi, intellektual salohiyati esa uzluksiz ta'lim tizimining mazmuni, shaxsning har tomonlama shakllanishi uchun xizmat qiluvchi moddiy va ma'naviy shart-sharoitlarning mavjudligi, jamiyatda qaror topgan ijtimoiy sog'lom muhit darajasi, ijtimoiy munosabatlar mazmuni, shuningdek, aholining etnopsixologik xususiyatlari, axloqiy qarashlari va hayotiy ehtiqlari asosida

shakllantiriladi. «Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi»ning yaratilishida mazkur jihatlar to'la o'rganildi. Milliy dastur asosini O'zbekistonning taraqqiyotini tahminlay oladigan, uni jahonning ilg'or mamlakatlari darajasiga ko'tarilishiga hissa qo'shuvchi dadil, mustaqil fikrlovchi, bilimli, malakali mutaxassis, shuningdek, ijobiy sifatlarga ega bo'lgan kadrlarni tayyorlab voyaga etkazish jarayoni tashkil etadi.

Xo'sh, «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» qanday hujjat? Uning mazmunida qanday g'oyalar ifoda etilgan edi? «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonunining qoidalariga muvofiq, milliy tajribaning tahlili va ta'lim tizimidagi jahon miqyosidagi yutuqlar asosida tayyorlangan hamda yuksak umumiy va kasb-hunar madaniyatiga, ijodiy va ijtimoiy faollikka, ijtimoiy-siyosiy hayotda mustaqil ravishda mo'ljalni to'g'ri ola bilish mahoratiga ega bo'lgan, istiqbol vazifalarini ilgari surish va hal etishga qodir kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgandir².

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning maqsadi – ta'lim qsini tubdan isloh qilish, uni o'tmishdan qolgan mafkuraviy qarash va sarqitlardan to'la xalos etish, rivojlangan demokratik davlatlar darajasida, yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlar tayyorlash Milliy tizimini yaratishdan iboratdir³(2-chizma).


«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da ilgari surilgan maqsadning to'laqonli ro'yobga chiqarish bir qator vazifalarning ijobiy hal qilinishini nazarda tutadi. Dasturda bu boradagi **vazifalarning** quyidagilardan iboratligi ko'rsatiladi:

- «Ta'lim to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq ta'lim tizimini isloh qilish, davlat va nodavlat ta'lim muassasalari hamda ta'lim va kadrlar tayyorlash maqadida raqobat muhitini shakllantirish negizida ta'lim

² Кадрлар тайёрлаш миллий дастури //Олий таълим: меъёрий хужжатлар тўплами. – Тошкент: Шарк нашриёт-матбаа акциядорлик компанияси Бош тахририяти. 2001. – 20-бет.

³ Ўша манба, – 25-бет.

tizimini yagona o‘quv, ilmiy-ishlab chiqarish majmui (2-chizma)⁴ sifatida izchil rivojlantirishni ta’minlash;



2 – чизма. «Кадрлар тайёрлаш миллий дастури»нинг моҳияти ва таркибий тузилмаси

- ta’lim va kadrlar tayyorlash tizimini jamiyatda amalga oshirayotgan demokratik huquqiy davlat qurilishi jarayonlariga moslashtirish;
- kadrlar tayyorlash tizimi muassasalarini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta’minlash, pedagogik faoliyatining nufuzi va ijtimoiy maqomini ko‘tarish;
- kadrlar tayyorlash tizimi va mazmunini mamlakatning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyoti istiqbollaridan, jamiyat ehtiyojlaridan, fan, madaniyat,

⁴ Чизма муаллиф томонида «Кадрлар тайёрлаш миллий дастури» асосида яратилди.

texnika va texnologiyaning zamonaviy yutuqlaridan kelib chiqqan holda qayta qurish;

- ta'lim oluvchilarni ma'naviy axloqiy tarbiyalashning va ma'rifiy ishlarning samarali shakllari hamda uslublarini ishlab chiqish va joriy etish;

- ta'lim va kadrlar tayyorlash, ta'lim muassasalarini attestatsiyadan o'tkazish va akkreditatsiya qilish sifatiga baho berishning xolis tizimini joriy qilish;

- yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda ta'limning talab qilinadigan darajasi va sifatini, kadrlar tayyorlash tizimining amalda faoliyat ko'rsatishi va barqaror rivojlanishining kafolatlarini, ustuvorligini tahminlovchi normativ, moddiy-texnika va axborot bazasini yaratish;

- ta'lim, fan, ishlab chiqarish samarali integratsiyalashuvini ta'minlash, tayyorlanayotgan kadrlarning miqdori va sifatiga nisbatan davlatning talablarini, shuningdek, nodavlat tuzilmalari, korxonalar va tashkilotlarning buyurtmalarini shakllantirishning mexanizmlarini ishlab chiqish;

- uzluksiz ta'lim va kadrlar tayyorlash tizimiga byudjetdan tashqari mablag'lar, shu jumladan, chet el investitsiyalari jalb etishning real mexanizmlarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

- kadrlar tayyorlash maqsadida o'zaro manfaatli xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.


Kadrlar tayyorlash milliy dasturi o'z ichiga quyidagi ta'lim turlarini qamrab oladi.

ТАЪЛИМ ТУРЛАРИ:

- **Мактабгача таълим**
- **Умумий ўрта таълим**
- **Ўрта махсус, касб-хунар таълими**
- **Олий таълим**
- **Олий ўқув юртидан кейинги таълим**
- **Кадрлар малакасини ошириш ва уларни қайта тайёрлаш**
- **Мактабдан ташқари таълим**

Kadrlar tayyorlash milliy modeli faqat ta'lim-tarbiya jarayoninigina qamrab olmay, ishlab chiqarish va ijtimoiy munosabatlarni ham o'z ichiga oladi.

«Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»ning asosida kadrlar tayyorlash milliy modeli va uning mohiyati yoritiladi. Milliy modelning o'ziga xos xususiyati mustaqil ravishda to'qqiz yillik umumiy o'rta hamda uch yillik o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini joriy etilishi bilan belgilanadi. Bu esa o'z navbatida umumiy ta'lim dasturlaridan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi dasturlariga o'tilishiga zamin yaratadi⁵.



3 - чизма. Кадрлар тайёрлаш миллий моделининг асосий таркибий қисмлари ўртасидаги ўзаро алоқадорлик ва боғлиқлик

Kadrlar tayyorlash milliy modeli shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan va ishlab chiqarish kabi tarkibiy qismlarning o'zaro hamkorligi, ular o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik asosida «yuksak ma'naviy va axloqiy talablarga javob beruvchi yuqori malakali kadrlarni tayyorlash Milliy tizimi» mohiyatini aks ettiruvchi andoza, loyiha hisoblanadi (3-chizma)⁶:

Kadrlar tayyorlash milliy modelining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iboratdir (4-chizma)⁷:

⁵ Ўша манба, – 34-бет.

⁶ Ўша манба, – 25-бет.

⁷ Чизма муаллиф томонидан «Кадрлар тайёрлаш миллий дастури» асосида яратилди.



Kadrlar tayyorlash milliy dasturimizning o‘zagini tashkil etgan Milliy modelimizning keng qamrovli va ichki yaxlitligi dunyoda mavjud boshqa molellardan prinsipial farqli jihatidir.

Milliy model Konsepsiyasining mazmuni o‘zbek xalqining milliy turmush tarzi va ma’naviy-axloqiy anhanalari bilan hamnafasdir. Zero, xalq orasida qadimdan « ma’rifatli inson» tushunchasi qo‘llanilib kelingan bo‘lib, u o‘zida keng mahnoni ifoda etadi. Bilim olishga intilish, ma’rifatli bo‘lish o‘zbek xalqi, millatining ruhiyatida ustuvor o‘rin tutuvchi omil sanaladi. ma’rifatlilik – faqatgina bilim va malakaga ega bo‘lish emas, ayni vaqtda chuqur ma’naviy axloq hamdir. Bilimli, komil inson qiyofasida ana shunday xislatlarga ega shaxslar namoyon bo‘ladi. SHuning uchun ham kadrlar tayyorlash milliy

modelining butun mohiyati o'zbek xalqining milliy tarixi va hayot tarzi bilan bog'lanib ketgan.

Mustaqil O'zbekiston Respublikasida o'ziga xos, takrorlanmas, tarixiy an'analarga asoslangan hamda bugungi kun talablariga to'la javob bera oladigan kadrlar tayyorlash milliy modeli yaratildi.

1.2. Ta'lim tizimini tartibga solish maqsadida kadrlar tayyorlash milliy dasturini amalga oshirish bosqichlari

YUrtboshimiz olg'a surgan O'zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining beshta tamoyili asosida, ularning barida islohotlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish belgilangan bo'lib, milliy dasturning maqsad va vazifalari bosqichma-bosqich amalga oshiriladi. Kadrlar tayyorlash milliy dasturini mazkur prinsipga asosan, uch bosqichda amalga oshirish mo'ljallangan. Har bir bosqichning o'z oldiga qo'ygan aniq vazifalari bor. Ularning sifatli bajarilishi keyingi bosqichning muvaffaqiyatiga sabab bo'ladi.

O'tish davrini o'ziga qamrab olgan mazkur birinchi bosqich 1997-2001 yillarni o'z ichiga oladi. Milliy dastur qabul qilinganidan keyin o'tgan davr mobaynida unda belgilangan vazifalarni hayotga tadbiq etish borasida muayyan ishlar amalga oshirildi ham. Jumladan, ta'lim boshqaruvchi organlari, o'quv muassasalari rahbarlari va xodimlarining e'tibori ta'lim mazmunini takomillashtirishga hamda yangi, ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etishga qaratildi.

Birinchi bosqichda kunduzgi umum ta'lim maktablari asosida 2 o'quv yilini o'zida 600 yaqin litseylar vujudga keldi va umumiy o'quvchilar soni 165 ming talabaga etdi.

Bundan tashqari yangi tizimning huquqiy asoslari yaratildi. Umumiy o'rta ta'lim, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi to'g'risidagi nizom, umumiy o'rta ta'limning davlat standartlari, o'quv dasturlari bo'yicha zamonaviy talablarga javob beruvchi dasturlar va boshqa bir qator me'yoriy hujjatlar amalda qo'llash uchun kiritilgani ana shu ishlar jumlasidandir.

Birinchi bosqichda amalda oshiriladigan eng asosiy ishlardan biri - bu 3 yillik akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari tizimiga zamin tayyorlashdan iboratdir. Har bir hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollari va ehtiyojlari hisobga olingan holda ana shu yoʻnalishlarni kadrlar bilan taʼminlovchi mazkur taʼlim muassasalarining joylashtirilishi, ularni moddiy va moliyaviy taʼminlashning dasturi ishlab chiqildi va hukumat qarori bilan tasdiqlandi. Har bir yangi tashkil etiladigan litsey va kollejlarning yoʻnalishlari boʻyicha oʻziga xos maxsus loyihalari ishlab chiqildi. Bunda mahalliy sharoitlar hisobga olinib, har bir tumandan tanlab olingan oʻziga xos loyiha boʻyicha litsey va kollejlarining tashkil etilishi rejalashtirilgan.

Ushbu dasturda akademik litsey va kasb-hunar kollejlarini qayta taʼmirlash, rekonstruksiya qilish, yangidan qurish zaruriyatidan kelib chiqqan holda (har bir viloyat, tuman, qishloq miqyosida) ularning moddiy bazasini taʼminlash masalalari oʻz echimini topgan. Bu borada davlatimizning barcha tuzilmalari, resurslari, iqtisodiy imkoniyatlari ishga solindi.

Ikkinchi bosqichda, yaʼni 2005 yilda milliy dasturda belgilangan vazifalar toʻliq amalga oshirildi.

Uchinchi bosqichda (2005 yildan keyin) kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish va yanada rivojlantirish jarayoni amalga oshirilmoqda. Taʼlim-tarbiya kadrlar tayyorlash tizimini tarkibiy bir qismidir. Talim-tarbiya tizimi kadrlarning yangi avlodi tafakkurini, ongini shakllantirishga xizmat qiladigan zarur bir sohadir.

1-jadval⁸

Oliy taʼlim, akadem litsey va kasb-hunar kollejlari taʼlimining asosiy koʻrsatkichlari (2000-2016 yillar)

yillar	AL	ularda oʻquvchilar soni (ming)	oʻqituvchilar	KHKlar	KXKda oʻquvchilar soni (ming kishi)	oʻqituvchilar (ming kishi)	OTMI ar soni	Ularda talabalar soni (ming kishi)	Professor - oʻqituvchilar soni (ming)
--------	----	--------------------------------	---------------	--------	-------------------------------------	----------------------------	--------------	------------------------------------	---------------------------------------

⁸ Манба: Ўзбекистон Республикаси таълим статистикаси. Нашр этилган: 21/07/2017.

		kishi)							kishi)
2000 y.	46	9,8	1,8	241	59,5	9,1	61	183,6	18,4
2005 y.	77	37,3	4,4	878	853,3	55,6	62	278,7	23,1
2010 y.	143	108,3	9,3	1396	1514,8	106,0	65	274,5	23,0
2016 y.	144	101,3	9,5	1422	1358,1	100,2	70	268,3	24,0

Jadvalda keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, akademik litseylar 2000 yildan 2016 yilga qadar 3 barobardan ortiqqa o'sgan, lekin bugungi kundagi iqtisodiyotni modernizatsiyalash jarayoni tezlashgan davrda ta'lim sohasidagi amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida ushbu ko'rsatkich 2017 yilda 50 foizga qisqarmokda. YA'ni ta'lim tizimini sifat bosqichiga ko'tarish jarayoni kechayotgan davrda ta'lim sifatiga javob bera olmaydigan, reyting ko'rsatkichlari past bo'lgan ALLar tugatilishga erishilmoqda. Oliy ta'lim muassasalari ko'rsatkichlariga e'tiborimizni qaratadigan bo'lsak, OTMLar soni 2016 yilda 2000 yilga nisbatan 10 taga ortgan, talabalar soni esa 146 foizga ortganligi aks ettirilgan. Ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki O'zbekistonda ta'lim tizimini sifat jixatidan yuqoriga ko'tarish ishlari jadallik bilan amalga oshirilmoqda.

Kadrlar tayyorlash milliy modeli, shu tariqa, faqat ta'lim-tarbiyadangina iborat emas, balki bir-biriga bog'liq bo'lgan ko'pgina hayot bosqichlarini o'z ichiga oladi. Milliy modelimiz, bu - shaxs, davlat va jamiyat, uzluksiz ta'lim, fan, ishlab chiqarishning uzviy birligi va hamkorligi, ularning bir-biriga aloqasini aks ettiradi.

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda bevosita o'zimizga xos bo'lgan, takrorlanmas, buyuk tariximiz, an'analарimizga asoslangan va shu bilan birga

hozirgi davr talablariga javob beraoladigan kadrlar tayyorlash milliy modeli yaratildi. Dasturimiz modelimizning milliyligi ham aynan shulardan iboratdir.

Yana bir, hatto aytish mumkinki, prinsipial yangi jihat shundaki, ko'pgina boshqa davlatlardan farqli o'laroq, bizning mamlakatimizda kadrlar tayyorlash milliy dasturida qo'yilgan vazifalarni amalga oshirishning barcha yuki Davlatimiz zimmasidadir. Kadrlar tayyorlash milliy modelimiz o'z ilmiy salohiyati, ahamiyati chuqur falsafiy ma'noga ega ekanligi bilan xalqaro miqyosda tan olindi va o'z o'rnini topdi.

II - BOB. O'ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TA'LIM, UMUMIY O'RTA TA'LIM VA O'RTA MAXSUS TA'LIMNI RIVOJLANISH MASALALARI

2.1. Maktabgacha ta'lim tizimidagi islohotlarni amalga oshirish zarurligi va vazirlikning vazifalari

Ma'lumki, uzluksiz ta'limning boshlang'ich qismi xisoblangan maktabgacha ta'lim bolalarning sog'lom o'sishi va tizimli o'qitishga tayyorlanishida muxim o'rin tutadi.

Maktabgacha ta'lim bolaning sog'lom, har tomonlama kamol topib shakllanishini ta'minlaydi, unda o'qishga intilish hissini uyg'otadi, uni

muntazam ta'lim olishga tayyorlaydi hamda bola olti-etti yoshga etguncha davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari va oilalarda amalga oshiriladi. Bu kabi ta'lim muassasalarining faoliyatini tashkil etishda mahallalar, jamoat va xayriya tashkilotlari, xalqaro fondlar faol ishtirok etadi. Keyingi yillarda maktabgacha ta'lim muassasalarining yangi tarmog'i shakllanib bormoqda. Bu o'rinda «Xonadon bog'chasi» hamda «Bolalar bog'chasi – boshlang'ich maktab» majmualarini misol qilib keltirish mumkin. Maktabgacha ta'lim muassasalarida Bblalarga tasviriy san'at, musiqa, til va kompg'yuter savodxonligini o'rgatuvchi guruhlar tashkil etilmoqda. Bu kabi harakatlar maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalarning «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi» talablari asosida ma'naviy-axloqiy tarbiyalashga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasida 3-6 yoshli bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalariga qamrab olish darajasi 2016 yilda shu yoshdagi aholining 23,8 foizini tashkil etdi. 2017 yil 1 yanvar xolatiga respublika maktabgacha ta'lim muassasalari soni 5138 tani tashkil etib, shundan 3065 tasi shahar, 2050 tasi qishloq joylaridan joylashgan. Ularda tarbiyalanayotgan 690975 nafar bolalardan 53 foizini o'g'il bolalar, 47 foizini tashkil etadi.

2-jadval.

2016 yilda maktabgacha ta'lim muassasasining asosiy ko'rsatkichlari, birlik⁹

Maktabgacha ta'lim muassasalarining soni	o'rinlar soni	Bolalar soni	Ulardan qizlar	100 ta o'ringan to'g'ri keladigan bolalar soni, bola
5138	721760	690975	326905	96
SHahar joylarda				
3065	486054	457511	219188	94

⁹ Манба: Ўзбекистон Республикаси таълим статистикаси. Нашр этилган: 21/07/2017.

qishloqjoylarda				
2050	230889	204089	97298	88

O‘zbekiston Prezidenti SH.Mirziyoev 2017 yil 30 sentyabrda “Maktabgacha ta’lim tizimini boshqarishni takomillashtirish haqida”gi PQ - 3305-sonli farmonni imzoladi. Hujjatda Maktabgacha ta’lim vazirligini tashkil etish ko‘zda tutilgan edi. Ushbu farmonni qabul qilinishiga va maktabgacha ta’lim tizimida islohatlar amalga oshirilishiga nima sabab bo‘ldi? degan savolga javob berishdan boshlaymiz.¹⁰

Bugungi kunda O‘zbekiston hududlarida etarli darajada xususiy o‘quv markazlari tashkillangan. Ularning juda katta qismida, abituriyentlarni tayyorlash kurslari, til kurslari, qizlar uchun hunar kurslaridan tashqari, bolalarga maktabgacha ta’lim berish kurslari («pochemuchka») mavjud. Bundan tashqari, faqat maktabgacha yoshdagi bolalarga ta’lim berishga ixtisoslashgan xususiy maktab va o‘quv markazlari ham mavjud. Joylardagi aholisining taxminan 70–80 foizi etnik o‘zbeklar bo‘lgan holda, maktabgacha ta’lim markazlariga qatnovchi bolalarning 80 foizi esa etnik rus, koreys, tatar, shuningdek, rusiyzabon o‘zbek oilalari vakillaridir. YA’ni, maktabgacha ta’lim masalasida teskari statistikani kuzatish mumki, ya’ni o‘zbek oilalari bolalari qamrab olinmagan.

¹⁰ Мирзиёев Ш.М. 2017. 30 сентябрь. “Мактабгача таълим тизimini бoшқаришни тақомиллаштириш ҳақида”ги ПҚ-3305-сон фармони.(Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 30.09.2017 й., 07/17/3305/0038-сон)

ДАВЛАТ-ХУСУСИЙ ШЕРИКЧИЛИК.
Мақтабгача таълимнинг долзарб муаммолари.



1-rasm. Maktabgacha ta'lim tizimida Davlat-xususiy sherikchiligi asosida echilishga karatilgan muammolar.¹⁰

Umuman olganda, joylardagi aynan rusiyzabon aholisi 4–6 yoshdagi bolalarini o'qitib, maktabga alohida tayyorlashga moyilligi yuqoridir. Yuqoridagi fikr mulohazalardan kelib chiqqan xolda shuni aytish mumkin-ki, davlatimizning maktabgacha ta'lim tizimidagi islohotlarni amalga oshirishining asosiy sabablari quyidagilardan iborat:

- ✓ O'zbek oilalarining xususiy o'quv marazlariga ishonmasliklari;
- ✓ O'zbek oilalarining moliyaviy ahvoli xususiy o'quv marazlariga to'lash darajasini qoplay olmasliklari.

Shuning uchun ham o'zbek oilalari farzandlarini ko'proq davlat MTMlariga (maktabgacha ta'lim muassasalari, ya'ni bolalar bog'chalariga) ishonib topshiradi. Rasmiy talabga muvofiq, bog'chada ham bolalarga o'qish-yozish, chizish, matematika asoslari, shuningdek, rus va ingliz tilidan nimadir o'rgatilishi kerak. O'tgan davrda MTMlarining katta qismi, afsuski, amalda bu talabga javob bermasliklari aniqlangan. Narxlarga kelsak, Davlat bog'chalarida bola haftasiga besh kun bo'lad, buning evaziga davlatga 110–120 ming so'm to'lanadi. Xususiy o'quv markazlari haftasiga ikki kun, odatda shanba va

¹⁰ Мирзиёев Ш.М. 30 сентябрь. “Мақтабгача таълим тизимини бошқаришни такомиллаштириш ҳақида”ги ПҚ-3305-сон фармони. (Қонун ҳужжатлари маълумотлари миллий базаси, 30.09.2017 й., 07/17/3305/0038-сон)

yakshanba kunlari bolalarni qabul qiladi va ular bilan jami 3–6 soat shug‘ullanadi. Buning evaziga qilinadigan to‘lov — 120–200 ming so‘m.

Maktabgacha ta‘lim tizimidagi sifatni pastligiga ta‘sir etuvchi omillar:

- ✓ O‘z xarajatlarini qoplay olmasliklari;
- ✓ Xodimlarning moddiy ta‘minotiga nisbatan rag‘batning yo‘qligi;
- ✓ Bolalarning oziq-ovqatining sifatini pastligi;
- ✓ O‘yinchoqlarning sifatini pastligi

O‘z-o‘zidan ko‘rinib turibdiki, moddiy nuqtai nazardan davlat bog‘chalari aholi uchun manfaatli, lekin o‘z xarajatlarini ko‘tara olmaydi, bu xodimlarning moddiy ta‘minotiga, bolalarning oziq-ovqati, o‘yinchoqlari va boshqa narsalarning sifatiga ta‘sir o‘tkazmay qolmaydi. Foyda keltirmaydigan muassasada xizmat sifati ham tushib ketaveradi.

Lekin aholining katta qismi baribir farzandlarini bog‘chaga ishonib topshiradi:

- ✓ birinchidan, hamma ham haftasiga 3–6 soat o‘tkazilgan mashg‘ulot uchun 200 ming so‘m to‘lashni xohlamaydi yoki moddiy imkoniyati etmaydi,
- ✓ ikkinchidan, hamma oilada ham ish kunlari soat 9:00dan 18:00gacha yosh bolalarga qarab turadigan odam topilmaydi.

YAngi tashkil etilgan vazirlik tizimiga Qoraqalpog‘iston maktabgacha ta‘lim vazirligi, Toshkent shahri maktabgacha ta‘lim bosh boshqarmasi, viloyatlarning maktabgacha ta‘lim boshqarmalari va ularning shahar va tumanlardagi bo‘limlari kiradi. Farmonda aytilishicha, oxirgi 20 yil ichida maktabgacha ta‘lim muassasalari (MTM) soni 45 foizdan ko‘proqqa qisqarib ketgan, bolalarning maktabgacha ta‘lim muassasalari tomondan qamrab olinishi 30 foizga yaqinni tashkil etadi.

YAngi vazirlikning **asosiy vazifalari** ichida O‘zbekistonda o‘zaro raqobatlashuvchi davlat va nodavlat MOMlari tarmog‘ini yaratish hisobiga bolalarning maktabgacha ta‘lim bilan to‘liq qamrab olinishini bosqichma-bosqich ta‘minlash hamda maktabgacha ta‘lim va bolalarni tarbiyalashning muqobil shakllarini amaliyotga tatbiq qilish hisoblanadi. SHu munosabat bilan maktabgacha ta‘lim rahbarlari va pedagogik xodimlarini zamonaviy

texnologiyalar va metodlar negizida qayta tayyorlash va "bolalarni tarbiyalash bo'yicha munosib sharoitlar"ni yaratish rejalashtirilgan. YUqoridagi farmon ijrosini ta'minlash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qarori bilan Maktabgacha ta'lim vazirligi to'g'risidagi nizom hamda Maktabgacha ta'lim muassasalari rahbar va mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish instituti ustavi tasdiqlandi.

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi to'g'risidagi nizomga ko'ra, vazirlik O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga bo'ysunadi.

Vazirlikning o'z vakolatlari doirasida qabul qilingan qarorlari davlat va xo'jalik boshqaruvi organlari, mahalliy davlat hokimiyati organlari, boshqa tashkilotlar va ularning mansabdor shaxslari, shuningdek, fuqarolar tomonidan bajarilishi majburiydir.

Quyidagilar Vazirlikning asosiy vazifalari hisoblanadi:

birinchidan, maktabgacha ta'lim sohasida muvofiqlashtirilgan yagona davlat siyosatini ishlab chiqish va uni amalga tatbiq etish;

ikkinchidan, xalqaro tajribani chuqur o'rganib, maktabgacha ta'lim yoshida bo'lgan bolalarning jismoniy va estetik ulg'ayishi, har tomonlama intellektual axloqiy rivojlanishi uchun keng sharoitlarni yaratish;

uchinchidan, respublika bo'ylab bosqichma-bosqich tashkil etiladigan, o'zaro raqobatda bo'lgan davlat va nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalariga turli imtiyozlarni taqdim etish, soliqlardan qisman ozod etish, tashkil etilgan muassasalar hisobiga bolalarni MTMlarga jalb etib borishni tashkillashtirish;

to'rtinchidan, amaliyotda zamonaviy o'quv-pedagogik texnologiyalardan foydalanish; muassasalarda tarbiya va o'quv jarayonlarini innovatsion metodlar asosida olib borish;

beshinchidan, maktabgacha ta'lim muassasalarini o'quv-metodik, didaktik materiallar, o'quv ahamiyatiga ega o'yinchoq va shu turdagi buyumlar bilan ta'minlash, shuningdek, badiiy adabiyotliklarni etkazib berish;

oltinchidan, maktabgacha ta'lim tizimida faoliyat olib borayotgan pedagog kadrlar hamda rahbarlarning malakasini oshirish, ularni kasbga qayta tayyorlash;

ettinchidan, tizimda faoliyat olib borayotgan xodimlarni moddiy rag'batlantirish dasturini ishlab chiqish hamda vazirlikka yangi, malakali xodimlarni ishga jalb etish;

sakkizinchidan, me'yor talablariga mos keluvchi sinfxonalarni tashkil etish, tarbiyalanuvchilar ehtiyoji to'liq qondiruvchi sharoitlarni yaratish, sog'lom ovqatlanish dasturini qayta ko'rib chiqish hamda ularga tibbiy yordam ko'rsatish xizmatini yangi bosqichga olib chiqish kabi masalalar ilgari surilmoqda.

to'qqizinchidan, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi bilan birgalikda maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalarga tibbiy xizmat ko'rsatish hamda ularning hayoti va sog'lig'ini himoya qilish bo'yicha profilaktika chora-tadbirlarini muvofiqlashtirish.

Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi va uning tizimidagi muassasalarning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash hamda nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari faoliyatini qo'llab-quvvatlash to'g'risida"gi qaroriga asosan Qoraqalpog'iston Respublikasi va viloyatlar markazlari, tumanlar va shaharlarda (Toshkent shahri bundan mustasno) investitsiya majburiyatlarini bajarish sharti bilan "nol" qiymatda bino berish hamda xususiy investorlarning o'ziga mulk huquqi asosida tegishli bo'lgan binolarda tashkil etilgan nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalarining 2023 yil 1 yanvargacha foydalanilgan elektr energiyasi va tabiiy gaz xizmatlari uchun to'lovning 50 foizi o'z mablag'lari hisobidan hamda qolgan 50 foizi O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti mablag'lari hisobidan to'lanishi nazarda tutildi.

SHuningdek, qaror bilan Nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalari tomonidan foydalanilgan elektr energiyasi va tabiiy gaz xizmatlari uchun O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjetidan oylik kompensatsiyalarni to'lash tartibi to'g'risidagi nizom tasdiqlanmoqda.

Qarorda aytilishicha, mazkur vazirlik barcha shartnoma, munosabat va sohaga doir masalalar bo'yicha Xalq ta'limi vazirligining huquqiy vorisi hisoblanadi.

Aholi yashash joylarida talab va taklif munosabatlarini o'rganib chiqib, kelgusida butun O'zbekiston bo'ylab, maktabgacha ta'lim yoshida bo'lgan bolalarni ta'lim muassasalariga jalb etish maqsadida, 60, 70, 100, 120 va 150 o'rinli davlat hamda nodavlat MTM qurilishi rejalashtirilgan.

Davlat maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarini rag'batlantirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 5 yanvardagi 10-son qarori bilan Davlat maktabgacha ta'lim tizimi xodimlari mehnatiga haq to'lash va ularni moddiy rag'batlantirish tartibi to'g'risida nizom tasdiqlandi. Nizomga asosan davlat maktabgacha ta'lim tizimi xodimlarining lavozim maoshlari:

- ✓ lavozim va malaka toifasi uchun belgilangan bazaviy tarif stavkalar;
- ✓ lavozim maoshlariga qo'shimchalar va ustamalar asosida shakllantiriladi¹¹

.(1-ilova tarifikatsiya)

Jismoniy va psixik rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarga ixtisoslashtirilgan muassasalarda rahbar, pedagog va tibbiyot xodimlarining lavozim maoshlari va bazaviy tarif stavkalariga 100 foiz miqdorda tarbiyachi yordamchilarga esa 50 foiz miqdorda qo'shimcha to'lov qo'shimcha haq to'lanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 28 fevraldagi PQ-3571-sonli «Davlat maktabgacha ta'lim muassasalari xodimlarining ayrim toifalari mehnatiga haq to'lashni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi qarori imzolandi. Ushbu qaror uzluksiz ta'lim yagona tizimining muhim bo'g'ini sifatida maktabgacha ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, xodimlarning mehnatiga haq to'lash va moddiy rag'batlantirishning munosib shart-sharoitlarini yaratish, yuqori malakali kadrlarni, shu jumladan, yosh bitiruvchilarni jalb etish, jamiyatda davlat maktabgacha ta'lim muassasalari pedagoglarining nufuzini oshirish maqsadida qabul qilingan. Hujjatga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi, Moliya vazirligi hamda Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining davlat maktabgacha ta'lim muassasalari xodimlari ayrim toifalarining 2018 yil 1 martdan boshlab –

¹¹ @huquqiyaxborot (интернет маълумоти)

mudirlar, tarbiyachilar, metodistlar, o'qituvchilar, defektologlar, psixologlar, musiqa rahbarlari va tarbiyachining yordamchilari mehnatida haq to'lashning bazaviy tarif stavkalari – **30 foizga**, 2018 yil 1 sentyabrdan boshlab tayyorgarlik (5 yoshdan 6-7 yoshgacha) guruhi tarbiyachilari, oliy ma'lumotli o'qituvchilar, defektologlar, psixologlar mehnatida haq to'lashning bazaviy tarif stavkalari, ularning bazaviy tarif stavkalari miqdorlarini umumta'lim maktablari boshlang'ich sinflari o'qituvchilarining bazaviy tarif stavkalari miqdorlariga tenglashtirgan holda – **30 foizga**, oliy yoki o'rta maxsus, kasb-hunar pedagogik ma'lumotli tarbiyachining o'rinbosarlari mehnatiga haq to'lashning bazaviy tarif stavkalari – **20 foizga**, maktabgacha ta'lim muassasalari mudirlari mehnatiga haq to'lashning bazaviy tarif stavkalari – **10 foizga** tabaqalashtirib oshiriladi. Buning natijasida davlat maktabgacha ta'lim muassasalarida mehnat qilayotgan jami 93555 nafar xodim, shundan 4908 nafar mudir, 3924 nafar oliy ma'lumotli tarbiyachi, 39523 nafar o'rta maxsus ma'lumotli tarbiyachi, 673 nafar metodist, 3765 nafar defektolog, 1450 nafar psixolog, 33259 nafar tarbiyachi yordamchisi va 7503 nafar musiqa rahbarining ish haqlari sezilarli darajada oshiriladi.

Ushbu qarorda 2018 yil sentyabr oyidan boshlab oliy ma'lumotga ega bo'lgan tayyorlov guruhi (5 yoshdan 6-7 yoshgacha) tarbiyachisi mehnatiga haq to'lashning bazaviy tarif stavkalari miqdori umumta'lim maktablari boshlang'ich sinflari o'qituvchilarining bazaviy tarif stavkalari miqdoriga tenglashtirilishi belgilab qo'yilgan.

Bundan tashqari, qaror bilan maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasini oshirish maqsadida hamda qishloq joylardagi aholi turmush darajasini inobatga olib, Qashqadaryo viloyatining Dehqonobod, Kasbi, Mirishkor, Qamashi, CHiroqchi, Nishon, YAKkabog' va G'uzor tumanlarida, Buxoro viloyatining Olot, SHofirkon, Qorako'l, Peshku va Romitan tumanlarida, Surxondaryo viloyatining Qiziriq, Muzrabot, Oltinsoy, Boysun, Qumqo'rg'on, Uzun, Sariosiyo tumanlarida joylashgan davlat maktabgacha ta'lim muassasalarida 2023 yilning 1

yanvarigacha ota-onalar badal to'lovi miqdorini **50 foizga kamaytirish** nazarda tutilgan.

2018 yil 1 martdan boshlab davlat maktabgacha ta'lim muassasalarida tarbiyachining yordamchisi mehnatiga haq to'lash tartibi bazaviy tarif stavkalaridan kelib chiqib joriy etiladi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi 2018 yilda ushbu qarorga muvofiq davlat ta'lim muassasalari xodimlari mehnatiga haq to'lashning bazaviy tarif stavkalarini oshirish bo'yicha qo'shimcha xarajatlar O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti hisobiga moliyalashtirilishini ta'minlab, 2019 yildan boshlab esa O'zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti parametrlarini shakllantirishda ushbu xarajatlarni nazarda tutadi, davlat maktabgacha ta'lim muassasalarini moddiy rag'batlantirishning maxsus jamg'armasini shakllantirishga qonun hujjatlarida belgilangan mehnatga haq to'lash fondining qat'iy ravishda **15 foizi** miqdorida qo'shimcha mablag'lar ajratilishini ta'minlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi moddiy rag'batlantirishning maxsus jamg'armasi mablag'laridan maqsadli va manzilli foydalanilishi ustidan tizimli nazorat o'rnatadi, davlat maktabgacha ta'lim muassasalari xarajatlari smetalarida ular alohida satrda ajratilishini nazarda tutadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasining 2018 yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida» 2017 yil 29 dekabrda PQ-3454-son qarorining 32-ilovasiga ilovaga muvofiq o'zgartirish kiritiladi.

O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi manfaatdor vazirliklar va idoralar bilan birgalikda qonun hujjatlariga ushbu qarordan kelib chiqadigan o'zgartirish va qo'shimchalar to'g'risida bir hafta muddatda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga takliflar kiritadi.

2.2 Maktabgacha ta'lim vazirligiga davlat-xususiy sheriklik asosida maktabgacha ta'lim muasssalarini tashkil etish mexanizmlari

“Bugun biz davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan yangilashga qaratilgan innovatsion rivojlanish yo‘liga o‘tmoqdamiz.

Innovatsiya – bu kelajak degani.

Biz buyuk kelajagimizni barpo etishni bugundan boshlaydigan bo‘lsak, uni aynan innovatsion g‘oyalar, innovatsion yondashuv asosida boshlashimiz kerak”.¹²

O‘zbekistonda maktabgacha ta’lim tizimindagi islohotlarni rivojlantirish maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti SHavkat Mirziyoev raisligida 14 fevral kuni maktabgacha ta’lim tizimini isloh qilish va rivojlantirish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar natijadorligi tahliliga bag‘ishlab o‘tkazgan videoselektorida bog‘cha erlaridan foydalanmoqchi bo‘lgan “xomxayol” tadbirkorlarni tanqid ostiga olindi. Jumladan davlat-xususiy sheriklik asosida nodavlat bog‘chalar tarmog‘ini kengaytirish masalasini ko‘rib chiqiish asosida hududlarga biriktirilgan tijorat banklari va tadbirkorlar tomonidan 2018 yilda jami 222 ming nafar bolaga mo‘ljallangan 3 mingdan ziyod nodavlat bolalar bog‘chasini tashkil etish rejalashtirilib, shundan 1 ming 200 tasi yangi quriladigan binoda, 1 ming 360 tasi mavjud binolarda va 470 tasi uy bog‘chasi sifatida tashkil etilishi ko‘zda tutildi.

SHu bois Prezidentimiz tomonidan tadbirkorlarga ishlamay turgan bog‘chalarni berish, binoni ta’mirlab va jihozlab ishlatish vazifasini qo‘yish zarurligi, xususiy bog‘cha uchun yaxshi joydan er, bino va imtiyozli kredit olib, qurilgan yoki ta’mirlangan binodan 1-2 yildan keyin boshqa maqsadda foydalanaman, degan “xomxayol” bilan yurgan “qo‘shirnoq ichidagi tadbirkorlar” ham bor, deb, shu sababli hokimliklar xususiy bog‘chalar uchun er

¹² Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномасидан 22.12.2017й.

va bino ajratish, banklar esa kredit berish to'g'risidagi o'z qarorlarida bunday binolardan kamida 15-20 yil davomida bog'cha sifatida foydalanish zarurligi to'g'risidagi shartlarni nazarda tutish kerakligini ta'kidlab o'tildi.



Davlat-xususiy sheriklik asosida xususiy bog'chalar tashkil etish bo'yicha ham qator vazifalar belgilandi. Moliya vazirligiga Nodavlat maktabgacha ta'lim muassasalarini rivojlantirish jamg'armasini tuzish, Jamg'arma mablag'larini nodavlat bolalar bog'chalari uchun bino va inshootlarni xarid qilish, yangidan qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash ishlariga imtiyozli stavkada kredit ajratishga yo'naltirish topshirildi.

Savol tug'iladi. Davlat-xususiy sherikchiligi tushunchasi nimani anglatadi?


Javob: Davlat – xususiy sherikchiligi - davlat va xususiy sherik o'rtasida ma'lum bir muddatga yuridik shaklda rasmiylashtirilgan, maktabgacha ta'limni rivojlantirish uchun investitsiyalarni jalb qilish maqsadida tuzilgan hamkorlik kelishuvidir.

Davlat -xususiy sherikchilikni joriy etish asoslari o'z ichiga huquqiy, metodik va xalqaro (2-rasm)¹³ tajribani kamrab oladi Maktabgacha ta'lim vazirligiga davlat-xususiy sheriklik asosida bog'chalarni tashkil etish modellari, davlat va xususiy sherikning xuquqlari va majburiyatlari, bog'chalarni malakali

¹³ Диаграмма муаллиф томонидан яратилди.

kadrlar bilan ta'minlash bo'yicha nizom loyihasini ishlab chiqishni tezlashtirish vazifasi qo'yildi.

Давлат хусусий шерикчиликни жорий этиш асослари.



2-rasm. Davlat xususiy sherikchilikni joriy etish asoslari

Davlat - xususiy sherikchilik modellari uchun imtiyozlar quyidgilar orqali jumladan, soliq to'lovlari bo'yicha imtiyozlar(3-rasm)¹⁴, imtiyozli kreditlar, er uchastkalarini beg'araz berilishi, binolarning nol qiymatda berilishi

¹⁴ Расм муаллиф томонидан яратилди.

orqali

amalga

oshirilmoqda.

Давлат-хусусий шерикчилик моделлари учун имтиёзлар



3-rasm. Davlt-xususiy sherikchilik modellari uchun imtiyozlar

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimini yanada rivojlantirish maqsadidagi davlat-xususiy sherikchilik to'g'risidagi modellari ishlab chiqildi.

1-MODEL. Nodavlat mtm qurish uchun er uchastkalarini doimiy foydalanishga beg'araz taqdim etish. **Bunda**

davlatning majburiyatlari:

- imtiyozli kredit olishga ko'maklashish;
- barcha tashqi injener-kommunikatsion infratuzilma bilan ta'minlanishda ko'maklashish;
- metodik yordam ko'rsatish va maslahat berish;
- O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetidan davlat maktabgacha ta'lim muassasasidagi 1 bolaga sarflanadigan mablag' miqdorining 50 foizigacha subsidiya ajratish;

Davlat-xususiy sherikchilik to'g'risidagi kelishuv: 30 yildan kam bo'lmagan davrga

Xususiy sherikning majburiyatlari:

- xususiy mulkga doimiy egalik qilish sharti bilan 25 % tarbiyalanuvchilarni imtiyozli to'lov asosida qabul qilish;
- Davlatga mulkni qaytarib berish sharti bilan 15 % tarbiyalanuvchilarni imtiyozli to'lov asosida qabul qilish;

MTMni faoliyatga tushirish, qurilish va jihozlash choralari ko'rish, tegishli hududlarni obodonlashtirish.

Xususiy sherikning foydasi:

- Ta'lim berish faoliyatidan foyda olish imkoniyati;
- MTM binosi xususiy mulk sifatida qoladi yoki davlatga qaytarib beriladi.

2-MODEL. Faoliyat ko'rsatayotgan davlat mtmlari hududida nodavlat mtm qurish maqsadida er uchastkalarini beg'araz taqdim etish

Davlatning majburiyatlari:

- imtiyozli kredit olishga ko'maklashish;
 - Barcha tashqi injener-kommunikatsion infratuzilma bilan ta'minlanishda ko'maklashish;
 - metodik yordam ko'rsatish va maslahat berish;
- O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetidan davlat maktabgacha ta'lim muassasasidagi 1 bolaga sarflanadigan mablag' miqdorining 50 foizigacha subsidiya ajratish.

Davlat-xususiy sherikchilik to'g'risidagi kelishuv:
30 yildan kam bo'lmagan davrga;

Xususiy sherikning majburiyatlari:

- Nodavlat MTM qurish, tegishli hududni obodonlashtirish, faoliyat ko'rsatayotgan davlat va nodavlat MTM o'rtasidagi chegarani o'rash, nodavlat MTMni ishga tushirish;
- 15 % tarbiyalanuvchilarni imtiyozli to'lov asosida qabul qilish (mulq davlat ixtiyorida qoldiriladi).

Xususiy sherikning foydasi:

- Ta'lim berish faoliyatidan foyda olish imkoniyati.

3-MODEL. Davlat MTMni rekonstruksiya qilish va jihozlash sharti bilan er uchastkalarini nodavlat MTMN qurish maqsadida qaytarib berish shartisiz, keyinchalik egalik qilish uchun taqdim etish.

Davlatning majburiyatlari :

- imtiyozli kredit olishga ko‘maklashish;
- barcha tashqi injener-kommunikatsion infratuzilma bilan ta‘minlanishda ko‘maklashish;
- metodik yordam ko‘rsatish va maslahat berish;
- egalik (shefstvo) ostidagi rekonstruksiya va jihozlanishga muhtoj davlat MTM joylashgan joydan Nodavlat MTM qurish uchun er uchastkasini ajratish.

Davlat-xususiy sherikchilik to‘g‘risidagi kelishuv:
30 yildan kam bo‘lmagan davrga.

Xususiy sherikning majburiyatlari:

- Rekonstruksiya va jihozlash choralari ko‘rish, tegishli hududni obodonlashtirish va davlat MTMni foydalanishga topshirish;
- belgilangan er uchastkasida nodavlat MTMni qurish va foydalanishga tushirish;
- birlashtirilgan davlat MTMga egalik (shefstvo) qilish (kelishuv davrida mebel, jihozlar, o‘yinchoqlar va o‘quv qo‘lanmalar bilan ta‘minlash).

Xususiy sherik uchun qulayliklar:

- Ta‘lim faoliyatidan foyda olish imkoniyati;
- NMTM binosining xususiy mulk sifatida qolishi.

4-MODEL. Davlat mulkining bo‘sh binolarini va bo‘sh turgan davlat MTMlarini «nol qiymatda» berish.

Davlatning majburiyatlari :

- imtiyozli kredit olishga ko‘maklashish;
- barcha tashqi injener-kommunikatsion infratuzilma bilan ta‘minlanishda ko‘maklashish;
- metodik yordam ko‘rsatish va maslahat berish;

- O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetidan davlat maktabgacha ta'lim muassasasidagi 1 bolaga sarflanadigan mablag' miqdorining 50 foizigacha subsidiya ajratish.

Davlat-xususiy sherikchilik to'g'risidagi kelishuv: 30 yildan kam bo'lmagan davrga.

Xususiy sherikning majburiyatlari:

- xususiy mulkga egalik qilish sharti bilan 25 % tarbiyalanuvchilarni imtiyozli to'lov asosida qabul qilish
- Davlatga mulkni qaytarib berish sharti bilan 15 % tarbiyalanuvchilarni imtiyozli to'lov asosida qabul qilish;
- MTM faoliyatini tashkil etish, qurilish va jihozlash choralarini ko'rish, tegishli hududlarni obodonlashtirish.
- **Xususiy sherikning foydasi :**
- Ta'lim berish faoliyatidan foyda olish imkoniyati;
- MTM binosi xususiy mulk sifatida qoladi yoki davlatga qaytarib beriladi.

5-MODEL . Davlat mtmlarining to'liq foydalanilmayotgan binolari yoki korpuslarini uzoq muddatga foydalanishga berish.

Davlatning majburiyatlari :

- imtiyozli kredit olishga ko'maklashish;
- barcha tashqi injener-kommunikatsion infratuzilma bilan ta'minlanishda ko'maklashish;
- metodik yordam ko'rsatish va maslahat berish;
- O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetidan davlat maktabgacha ta'lim muassasasidagi 1 bolaga sarflanadigan mablag' miqdorining 50 foizigacha subsidiya ajratish.

Davlat-xususiy sherikchilik to'g'risidagi kelishuv: 30 yildan kam bo'lmagan davrga.

Xususiy sherikning majburiyatlari:

- 15 % tarbiyalanuvchilarni imtiyozli qabul qilish;

- Davlat MTMning to'liq foydalanilmayotgan binolari (korpuslari)ni rekonstruksiya qilish/kapital ta'mirlash va jihozlash, tegishli hududni obodonlashtirish, to'liq foydalanilmayotgan davlat MTM binosini joriy ta'mirlab borish, muhandislik kommunikatsiyalarini ishchi holatda saqlab borish choralari ko'rish va bo'sh turgan binoni (korpuslarni) maktabgacha ta'lim xizmatlarini ko'rsatish uchun foydalanishga topshirish.

Xususiy sherikning foydasi :

- Ta'lim berish faoliyatidan foyda olish imkoniyati.

6-MODEL. Oilaviy nodavlat mtmlarni moddiy-texnik va metodik ta'minlash.

Davlatning majburiyatlari :

-Tarbiyachi va uning yordamchisi ish haqqini Davlat MTMlarining qisqa muddatli yoki 9 soatlik guruhlarining tegishli kategoriyalari asosida to'lanadigan ish xaqqi miqdorida to'lash;

- oziq-ovqat mahsulotlari, yumshoq inventar va dori-darmonlar uchun sarflangan xarajatlarni davlat MTMlarida o'rnatilgan normalar asosida qoplash;

- MTMlarga mo'ljallangan zarur mebel va jihozlarni bilan ta'minlashda ko'maklashish, o'quv materiallari va jihozlarni foydalanishga taqdim etish;

- Qishloq vrachlik punkti yoki oilaviy poliklinikadan tibbiy xodimni biriktirish.

Davlat-xususiy sherikchilik to'g'risidagi kelishuv: 3 yildan kam bo'lmagan davrga.

Xususiy sherikning majburiyatlari:

- 70% tarbiyalanuvchilarni imtiyozli to'lov asosida qabul qilish;

- bolalarni parvarishlash va saqlash uchun davlat talablariga javob beradigan shart-sharoit yaratilishini ta'minlash;

- tuman maktabgacha ta'lim bo'limi tomonidan yo'llanma berilgan bolalar qabulini tegishli asoslarsiz rad etmaslik;

- tegishli bilim, ko'nikma va malakalarga ega bo'lish, ularni egallash, shuningdek malaka oshirish;

- Mablag'lar va asosiy vositalarni maqsadli ishlatish.

Xususiy sherikning foydasi :

- ota-onalar bilan kelishgan holda to'lov asosida qo'shimcha xizmat ko'rsatish imkoniyatining mavjudligi (o'qituvchi, trener, tibbiy xodimni taklif etish);
- tarbiyachi va yordamchining ishini xizmat ko'rsatishdan tushgan tushum hisobidan qo'shimcha rag'batlantirish.

7-MODEL. Konsessiya asosida er uchastkasi yoki binoni qurish, rekonstruksiya qilish va jihozlash maqsadida ajratish.

Davlatning majburiyatlari:

- imtiyozli kredit olishga ko'maklashish;
- barcha tashqi injener-kommunikatsion infratuzilma bilan ta'minlanishda ko'maklashish;
- metodik yordam ko'rsatish va maslahat berish;
- O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetidan davlat maktabgacha ta'lim muassasasidagi 1 bolaga sarflanadigan mablag' miqdorining 50 foizigacha subsidiya ajratish;
- xususiy sherikning qurilish, rekonstruksiya qilish va jihozlashga ketgan xarajatlari 15 yil ichida qoplanadi.

Davlat-xususiy sherikchilik to'g'risidagi kelishuv:
15 yildan kam bo'lmagan davrga.

Xususiy sherikning majburiyatlari:

- 20 % tarbiyalanuvchilarni imtiyozli to'lov asosida qabul qilish;
- qurilish va jihozlash, tegishli hududlarni obodonlashtirish va MTMni faoliyatga tushurish choralari ko'rish.

Xususiy sherikning foydasi :

- Ta'lim berish faoliyatidan foyda olish imkoniyati;
- Davlat bilan kelishgan holda, ajratilgan er uchastkasining 30% dan oshmagan hududini ishlatish sharti bilan boshqa turdagi faoliyat olib borish orqali foyda olish imkoniyati.

8-MODEL. Xususiy sherik mulki asosida tashkil qilingan nodavlat mtmlarning moddiy ta'minotini tashkil etish.

Davlatning majburiyatlari:

- imtiyozli kredit olishga ko'maklashish;
- barcha tashqi injener-kommunikatsion infratuzilma bilan ta'minlanishda ko'maklashish;
- O'zbekiston Respublikasi davlat byudjetidan davlat maktabgacha ta'lim muassasasidagi 1 bolaga sarflanadigan mablag' miqdorining 50 foizigacha subsidiya ajratish;

Davlat-xususiy sherikchilik to'g'risidagi kelishuv:

10 yildan kam bo'lmagan davrga.

Xususiy sherikning majburiyatlari:

- 20 % tarbiyalanuvchilarni imtiyozli to'lov asosida qabul qilish;

Xususiy sherikning foydasi :

- Ta'lim berish faoliyatidan foyda olish imkoniyati;
- Davlat tomonidan MTM rahbarlari, metodistlari, tarbiyachilari, defektologlari, psixologlari va musiqa rahbarlariga ish haqi to'lash kabi xarajatlari uchun byudjet subsidiyalarining ajratilishi.

9-MODEL. Egalik (shefstvo) shaklidagi filantropik faoliyat.

Davlatning majburiyatlari:

- Xususiy sherikning soliqqa tortiladigan bazasi biriktirilgan davlat MTMga homiylik va xayriya yordami sifatida kiritgan pul miqdoriga kamaytiriladi;
- Pul va asosiy vositalaridan maqsadli foydalanishni tashkil qilish va hisobini yuritish;
- xayriya sifatida qabul qilingan moddiy boyliklar haqidgi ma'lumotlarni OAVlari va muassasa sayti orqali 10 kun ichida yoritish.

Davlat-xususiy sherikchilik to'g'risidagi kelishuv:

1 yildan kam bo'lmagan davrga.

Xususiy sherikning majburiyatlari:

- davlat-xususiy sheriklik kelishuvida ko'rsatilgan muddat va miqdorda moddiy yordam ko'rsatish;

- SHeflik ostidagi davlat MTMLarini rivojlantirish va ta'lim faoliyati sifatini oshirishdan boshqa maqsadlarda yordam ko'rsatmaslik.

Xususiy sherikning majburiyatlari:

- davlat-xususiy sheriklik kelishuvida ko'rsatilgan muddat va miqdorda moddiy yordam ko'rsatish;

- SHeflik ostidagi davlat MTMLarini rivojlantirish va ta'lim faoliyati sifatini oshirishdan boshqa maqsadlarda yordam ko'rsatmaslik.

Hokimliklar va banklarga 2018 yilda tashkil etiladigan 3 mingdan ziyod xususiy bog'chaning har biri bo'yicha er, bino va kredit ajratish, bog'chalarni ishga tushirish muddatlari aniq belgilangan jadvallarni ishlab chiqish va tasdiqlatish yuzasidan ko'rsatma berildi(4-rasm)¹⁵.

¹⁵ Расм муаллиф томонидан «Давлат-шерикчилик тўғрисида»ги қонуни асосида яратилди.

ДАВЛАТ-ХУСУСИЙ ШЕРИКЧИЛИК.

Давлат-хусусий шерикчиликнинг моделлари.



4-rasm. Davlat-xususiy sherikchilikning modellari

Savol tugiladi kredit hisobiga olingan mulkni davlat – xususiy sherikchilik ob’ekti sifatida foydalanish mumkinmi?

Javob: Davlat hususiy sherikchilik asosida maktabgacha ta’lim muassasasini tashkil etish uchun hususiy investor mulkka egalik xuquqi borligi tugʻrisidagi xujjatni takdim etishi zarur.



5-rasm . Maktabgacha ta’lim tizimida davlat-xususiy sherikchilikning rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha imtiyozlar¹⁶.

Xullas, bolalar bog‘chalari — sotsializm davrida aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash maqsadida yaratilgan, ammo zamona zayli bilan davlat byudjeti uchun ortiqcha, samarasiz institutga aylanib qolgan edi. Uni jiddiy tarzda isloh qilish yoki hech bo‘lmasa sohani butunlay xususiylashtirish, yana qanaqadir boshqa echimlarni o‘ylash kerak bo‘ldi. Axir maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarga beriladigan ta’lim va tarbiya maktabdagi ta’lim va tarbiyaning ahvoliga, u esa, o‘z navbatida, voyaga etgan fuqaroning kelajak hayotiga ta’sir ko‘rsatadi..

2.3. Umumiy o‘rta ta’lim va o‘rta maxsus ta’lim tizimidagi islohotlarni yanada rivojlantirish masalalari

O‘zbekiston Respublikasining "Ta’lim to‘g‘risida"gi va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida"gi qonunlariga muvofiq, respublikada ta’lim tizimi tubdan isloh etildi, har tomonlama etuk va barkamol yoshlarni


¹⁶ Расм муаллиф томонидан «Давлат-шерикчилик тўғрисида»ги қонуни асосида яратилди.

tarbiyalash va voyaga etkazishga qaratilgan 12 (9+3) yillik majburiy ta'lim tizimi yaratilgan edi.

2017 yilning 1-sentyabriga qadar umumiy o'rta ta'lim to'qqiz yillik majburiy harakterdagi umumiy hamda uch yillik majburiy-ixtiyoriy harakterdagi o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limidan iborat bulgan. O'zbekistonda 2017 yildagi ta'lim tizimida olib borilgan qat'iy islohotlar natijasida majburiy to'qqiz yillik ta'limdan keyingi ta'lim ixtiyoriy 11 yillik yoki 9-sinfdan so'ng akademik letseylardagi yoki kasb-hunarga yo'naltirilgan kollejlardagi ta'limga aylantirildi, ya'ni o'quvchiga va uning ota-onasiga to'qqiz yillik majburiy ta'limdan keyingi ta'limni tanlash imkoniyati yanada kengaytirildi. Umumiy o'rta ta'lim boshlang'ich ta'limni ham qamrab oladi. Mazkur bosqichda o'quvchilarning fanlar asoslari bo'yicha muntazam bilim olishlari, ularda bilim olish ehtiyojining yuzaga kelishi, asosiy o'quv-ilmiiy va umummadaniy bilimlarning o'zlashtirishlari, milliy va umumbashariy qadriyatlarga asoslangan ma'naviy-axloqiy fazilatlar, mehnat, ijodiy fikrlash, atrof-muhitga ongli munosabatda bo'lish, shuningdek, kasb tanlash ko'nikmalarining shakllanishi uchun pedagogik shart-sharoit yaratiladi. Davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi attestat o'quvchilarning umumiy o'rta va o'rta maxsus, kasb-hunar ma'lumotiga egaliklarini belgilaydi.

2016/2017 o'quv yilida mavjud 9719 ta umumiy o'rta ta'lim maktablarida jami 4825,0 mingta o'quvchilar tahsil olgan bo'lsa, ulardan 2252,9 ming nafari qishloq joylarda joylashgan 6015 ta umumiy o'rta ta'lim maktablari hissasiga to'g'ri keldi. Umumta'lim maktablari soni 1991 yilda (8557 ta) nisbatan 13,6 foizga ko'paydi. Lekin ulardan 67,2 foizi ikki smenada, 0,1 foizi uch smenada, Qoraqolpog'iston Respublikasida (78,1%), Jizzax (81,0%), Surxandaryo (74,9%) va Toshkent (69,3%) viloyatlarida yuqori foizni tashkil etishi ko'zga tashlanadi. Umumiy o'rta ta'lim maktablaridagi o'quvchilarning 1314,8 ming nafari ikkinchi va uchinchi smenalarda ta'lim olishmoqda¹⁷.

¹⁷ Манба: Ўзбекистон Республикаси таълим статистикаси. Нашр этилган: 21/07/2017.



1-diagramma. Umumiy o'rta ta'limning asosiy ko'rsatkichlari.¹⁸

Akademik litsey o'quvchilarning imkoniyatlari va qiziqishlarini hisobga olgan holda ularning jadal intellektual rivojlanishi chuqur, qlashtirilgan, tabaqalashtirilgan, kasbga yo'naltirilgan ta'lim olishlarini ta'minlash maqsadida davlat ta'lim standartlariga muvofiq o'rta maxsus ta'lim beruvchi, yuridik maqomga ega ta'lim muassasasidir. Akademik litseylarda o'quvchilar o'zlari tanlab olgan ta'lim yo'nalishi (gumanitar, texnika, agrar va boshqalar) bo'yicha bilim saviyalarini oshirish hamda o'zlarida fanni chuqur o'rganishga qaratilgan maxsus kasb-hunar ko'nikmalarini shakllantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Akademik litseylar asosan oliy o'quv yurtlari qoshida tashkil etiladi. Kasb-hunar kollejlari esa o'quvchilarning muayyan kasb-hunarga moyilligi, layoqatlari, bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantirish, ularning tanlangan yo'nalishlar bo'yicha bir yoki bir necha zamonaviy kasb

sirlarini egallash imkonini beradi.

O'tgan davr mobaynida 1,5 mingdan ziyod zamonaviy akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari barpo etildi. Ularda faoliyat ko'rsatayotgan 110 mingga yaqin pedagog kadrlar va ishlab chiqarish ta'limi ustalari

¹⁸ Жадвал муаллиф томонидан ишлаб чиқилди.

tomonidan 240 ta kasblar bo'yicha kollej o'quvchilariga 3 yil o'qishi davomida 2 tadan 4 tagacha ixtisoslik berildi. 12 yillik majburiy ta'lim tizimi mamlakat taraqqiyotining ma'lum bosqichida o'ziga yuklatilgan vazifalarni bajardi.

Kasb-hunar kolleji o'quvchilarning kasb-hunarga moyilligi, bilim va ko'nikmalarini chuqur rivojlantiruvchi, tanlab olingan kasb-hunar bo'yicha bir yoki bir necha ixtisosni egallash imkonini yaratish maqsadida tegishli davlat ta'lim standartlari doirasida o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limini beruvchi, yuridik maqomga ega ta'lim muassasasidir.

Kasb-hunar kollejlari yangi tipdagi ta'lim muassasalari bo'lib, ularning jihozlanganlik darajasi, pedagogik tarkibning puxta tanlanganligi, shuningdek, o'quv jarayonining zamonaviy texnika va texnologiyalar yordamida tashkil etilishi alohida ehtiborga loyiq.

Akademik litsey va kasb-hunar kollejlarning bitiruvchilariga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplomlar beriladi. Ushbu diplomlar asosida bitiruvchilar ta'limning keyingi bosqichlarida o'qishni davom ettirish yoki egallangan ixtisos va kasb-hunar bo'yicha mehnat faoliyati bilan shug'ullanish huquqini qo'lga kiritadilar.

O'zbekistonda akademik litseylar soni 2000 yilda 46 ta bo'lgan bo'lsa, 2016 yilda 144 taga etgan, 2017 yilda esa akademik litseylar faoliyatini takomillashtirish maqsadida ushbu ko'rsatkich 73 tani tashkil qildi. Kasb-hunar kollejlari soni esa 2000 yilda 241 ta, 2016 yilga kelib 1422 tani tashkil etdi (3 - jadval).

3 -jadval

***O'rta maxsus kasb-hunar ta'limining asosiy ko'rsatkichlari
(2000-2016 yy.)¹⁹***

¹⁹ Манба: Ўзбекистон Республикаси таълим статистикаси. Нашр этилган: 21/07/2017.

	Akademik litseylar	Ularda o'quvchi lar(ming kishi)	O'qituvchilar (ming kishi)	Kasb - hunar kollejlari	Ularda o'quvchilar (ming kishi))	o'qituvchilar (ming kishi)
2000 y.	46	9,8	1,8	241	59,5	9,1
2005 y.	77	37,3	4,4	878	853,3	55,6
2010 y.	143	108,3	9,3	1396	1514,8	106,0
2016 y.	144	101,3	9,5	1422	1358,1	100,2

Lekin hozirgi zamon iqtisodiyotining globallashuvi, shiddat bilan rivojlanishi sharoitida unga qo'yilayotgan talablardan kelib chiqqan holda, ta'lim tizimiga ma'lum o'zgartirishlar kiritilishini davrning o'zi taqozo qildi. YA'ni, o'quvchi-yoshlarning barchasini ham 3 yil davomida kasb-hunar kollejlari majburiy o'qitish kutilgan samarani bermayotganligi ko'rinib qoldi. Buning asosiy sabablari quyidagilarda ko'rindi:

- bugungi kunda 9-sinf bitiruvchilari bolalikdan o'smirlikka o'tish davrida o'rgangan jamoasidan ajralib turli hududlardan kelgan turli xarakterdagi o'quvchilardan shakllangan jamoaga moslashishi qiyin kechishi;

- o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining tarqoq joylashganligi sababli o'quvchilarning aksariyati ta'lim muassasalariga borib kelish uchun har kuni 25-30 kilometr masofani bosib o'tishiga to'g'ri kelishi;

- natijada ob-havo noqulay kelgan kuz-qish mavsumida o'quvchilar davomatining keskin pasayib ketishiga olib kelishi;

- masofa (oraliq) uzoqligi natijasida o'quvchi yoshlarni ota-ona va maktab nazoratidan chetda qolayotganligi;

- maktablarda, AL va KXKlarda ta'lim sifatini pastligi;

- maktablarda, AL va KXKlarda ma'naviy-ma'rifiy ishlarni etarli darada olib borilmasligi (qogozda amalga oshirilishi) kabilardan iborat bo'ldi.

Ma'lumki, ta'lim tizimini tubdan isloh qilish, iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash, umumta'lim maktablarida 10-11 sinflarni tashkil etish bo'yicha

bergan takliflari asosida 2017 yilning 17 iyun kuni O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A.Aripov raisligida Toshkent shahridagi barcha umumta’lim maktablari, KHK va AL direktorlari bilan ushbu masalada kengaytirilgan yig‘ilish o‘tkazilib, mazkur yig‘ilishda berilgan topshiriqlarga asosan Sizlar (ota-onalar) bilan 18 iyun kuni uchrashuv o‘tkazib umumta’lim maktablarida 10-11 sinflarni tashkil etish bo‘yicha fikrnomalaringizni olgan edik. Ushbu fikrnomalar natijasini umumlashtirib, tahlil qilindi. Tahlillar natijasiga ko‘ra, fikrnomada ishtirok etgan bitiruvchilar va ularning ota-onalarining ko‘pchiligi umumta’lim maktablarida 10-11 sinflarni tashkil etishni ma’qullab fikr bildirgan²⁰. Dastlabki hulosalarga ko‘ra, Respublika bo‘yicha har bir tuman (shahar)lar kesimida olis tog‘li hududlar ya’ni KXX va ALdan 15 km va undan ortiq uzoqlikda joylashgan ta’lim muassasalari, maxsus maktab-internatlar va oddiy umumta’lim maktablarida jami 1889 ta ta’lim muassasasida 10-sinflarni tashkil etish rejalashtirilgan edi. Siz va siz kabi fuqarolar tomonidan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining virtual qabulxonasi va boshqa bir qator vazirlik va idoralarga umumta’lim maktablarida 10-11 sinflarni tashkil etish yuzasidan yo‘llangan murojaatlariga asosan hamda bitiruvchilarning ta’lim olish huquqlarini tengligini ta’minlash maqsadida respublikamizning barcha umumta’lim maktablarida 10-11 sinflarni tashkil etish rejalashtirildi.

SHu maqsadda, yana bir bor ota-onalar bilan yuzma-yuz ko‘rishib, ochiq muloqot asosida, bildirgan aniq takliflaringiz asosida 11 yillik majburiy ta’limga o‘tish masalasini muhokama etishimiz zarurligi, bu jarayonda xech bir ota onaning xohish istaklari nazardan chetda qolmasligi, ya’ni farzandlarimiz ota-onalari bilan birgalikda o‘zlari tanlagan ta’lim muassasasida o‘qishni davom ettirishi, bunga xech qanday to‘siqlar bo‘lmasligi eng muxim omil xisoblanadi. Bu yilgi 9-sinf bitiruvchilari so‘rovnomalar asosida xohlasa o‘z maktablarida

²⁰ Ўзбекистон Президентимиз Шавкат Мирзиёев 2017 йилнинг 16 июнида Тошкент шаҳрининг Учтепа туманига таширфлари

10-sinfda yoki KXK va ALLarga hujjat topshirishlari mumkin deb ta'kidlab o'tganlar²¹.

SHu munosabat bilan yana bir bor namunaviy shakl asosida so'rovnoma o'tkazildi va unda keltirilgan savollarga o'z fikrlar asoslab berildi. Uning natijalariga ko'ra, 11 yillik majburiy o'rta ta'limga o'tish rejalari belgilab olinadi, aniqrog'i, necha nafar o'quvchi, nechta sinf, ularning sonidan kelib chiqib, o'quv dasturlar, o'quv reja, darsliklar, o'qituvchilar bilan ta'minlash masalalari hal etildi.

SHuningdek, mutaxassislar tomonidan 10-11-sinflar uchun o'quv reja loyihasi tayyorlandi. Taklif etilayotgan loyihada o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi tizimidagi o'quv fanlari va o'quv soatlari optimallashtirildi.

Qo'shimcha sifatida shuni ham ta'kidlash joizki, bugungi kunga kelib, akademik litsey va kasb hunar kollejlariga joylashgan bitiruvchilariga 3 yil davomida kasb-hunar va ta'lim olib tegishli yo'nalishlar va kichik mutaxassis darajasidagi diplom beriladi. Bugungi kunda tashkil etilishi rejalashtirilayotgan 10-11 sinflarda o'qishni davom ettirgan bitiruvchilar esa 2 yil davomida ta'lim oladi va haftaning 1 kunida maxsus chuqurlashtirilgan tayyorgarlikni talab etmaydigan alohida kasblar bo'yicha tayyorlanadi, ya'ni "O'quv-ishlab chiqarish majmuasi"ni takomillashtirilgan shakli tavsiya etildi. Bunda farzandlarimizga oshpazlik, qandolatchilik, ish yurituvchi, sartarosh, duradgorlik, buyoqchi, buxgalter kabi kasblar beriladi. Bu degani 11-sinfni muvoffaqiyatli yakunlagan bitiruvchiga davlat namunasidagi diplom beriladi.

SHuningdek, tajribali olimlar va darslik mualliflaridan iborat ishchi guruhlari tuzilib, darsliklarni yaratish ustida ijodiy ishlarni amalga oshirish va o'quv yili boshlanguniga qadar darsliklar to'liq maktablarga etkazilishi ko'zda tutildi va qadamba-qadam amalga oshirilmoqda.

Bundan tashqari, 10-11-sinflar tashkil etilishi bilan o'qituvchilarga qo'shimcha ehtiyoj vujudga keladi, uning ham dastlabki hisob-kitoblari amalga

²¹ Ўзбекистон Президентимиз Шавкат Мирзиёев 2017 йилнинг 16 июнида Тошкент шаҳрининг Учтепа туманига таширфлари

oshirilmoqda, oʻrta maxsus, kasb-hunar taʼlimi muassasalaridagi umumtaʼlim fanlaridan dars berayotgan oʻqituvchilarni maktablarga jalb etish, yuqori sinf oʻqituvchilarining dars soatlarini optimallashtirish, pedagogika yoʻnalishidagi oliy oʻquv yurtlarini tamomlagan yosh mutaxassislarni ishga qabul qilish hisobidan toʻliq qoplash choralari koʻrilmoqda.

Ushbu tadbirlarni yaʼni umumiy oʻrta taʼlim muassasalarida 11 yillik majburiy oʻrta taʼlim tizimiga oʻtishni amalga oshirish maqsadida tanqidiy-tahliliy oʻrganuvchi respublika va hududiy ishchi guruhlar aʼzolari shakllantirildi va ular uchun qoʻllanmalar ishlab chiqildi.

Maqsad: Umumiy oʻrta taʼlim muassasalarida 11 yillik majburiy oʻrta taʼlim tizimiga izchillik bilan oʻtishni taʼminlash, mavjud muammolarni oʻrganish va echimi yuzasidan aniq manzilli takliflar tayyorlashdan iborat boʻldi.

Ishchi guruhi aʼzolari umumtaʼlim maktablarida 9-sinf bitiruvchilarining ota-onalari ishtirokida yigʻilish oʻtkazadi. Yigʻilishda 11 yillik majburiy oʻrta taʼlimga oʻtishning zaruriyati, ahamiyati haqida batafsil maʼlumot beradi, ota-onalarning fikr-mulohazalarini tinglaydi, qiziqtirgan savollariga javob beradi.

Yigʻilish soʻnggida ota-onalardan farzandlarini taʼlimning keyingi bosqichida qaysi taʼlim muassasasida oʻqishni davom ettirishi toʻgʻrisidagi fikrini (10-sinfda qolishi, akademik litsey yoki kasb-hunar kollejida oʻqishni davom ettirishi) (1-ilova) umumtaʼlim maktabining 9-sinf bitiruvchilarini taʼlimning keyingi bosqichiga qamrab olishni qayd etish daftariga yozib qoʻyadi.

Umumtaʼlim maktabining 9-sinf bitiruvchilarini taʼlimning keyingi bosqichiga qamrab olishni qayd etish daftari maktab direktorida qoladi, undagi maʼlumotlar 2-ilovadagi namunadagi shaklda umumlashtirilib, hududiy ishchi guruhi tomonidan Respublika ishchi guruhiga taqdim etiladi.

Ishchi guruhi aʼzosi maktabning umumiy holati (moddiy-texnik bazasi, oʻquvchilar oʻrni, pedagog kadrlar bilan taʼminlanishi va boshqa)ni oʻrganib, namunadagi shakl asosida pasportini tayyorlaydi (4-ilova).

Har bir tumanda maktablar kesimida so'rovnoma natijalari va maktab pasportidagi ma'lumotlar umumlashtiruvchi jadvalda jamlanadi (5-ilova).

Hududlarda umumiy o'rta ta'lim maktablarida 11 yillik majburiy ta'limga o'tish bilan bog'liq mavjud muammolar (binolarning quvvatiga nisbatan o'quvchilar sig'imi, pedagog kadrlarga va darsliklarga bo'lgan bo'lgan extiyoj, quvvatiga nisbatan ko'p o'quvchi ta'lim olayotgan maktab o'quvchilarini eng yaqin muassasalarga ko'chirish, kelgusi 3 yilda muassasalarda qo'shimcha binolar qurish va hakozo) yuzasidan tahliliy ma'lumot va aniq takliflar tayyorlaydi.

Har bir tumanda mavjud umumta'lim maktabi, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarining joylashuvi, "O'quv ishlab chiqarish majmuasi" tashkil etilishi rejalashtirilgan muassasa, kelgusida maktabga aylantirilishi rejalashtirilgan o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari aks etgan xaritasini tayyorlandi va ushbu xarita orqali tanlangan yo'ldagi faoliyat bugungi kunda boshlangan va amalga oshirilmoqda.

Xulosa qilishimiz mumkinki, ushbu tanlangan yo'lda olga borishimiz orqali har birimiz farzandlarimiz kelajagiga befarq emasligimiz, ularning tarbiyasi, ta'limi, kasb-hunar egallashi nafaqat davlatning, balki ota-onalarning ham majburiyati ekanligini chuqur his etgan xolda, farzandlarimizni to'liq ta'limning keyingi bosqichiga qamrab olish va kelajakda ularning baxtu-kamolotini ko'rishdek eng ezgu- baxtga erishish ta'minlanadi.

III -BOB. O‘ZBEKISTONDA OLIY TA’LIM TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHNING DOLZARB MASALALARI

3.1 Oliy ta’limni rivojlantirishda mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlarning mazmun va mohiyati

Oliy ta’lim o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limi negiziga asoslanib, ikki bosqich (bakalavriyat hamda magistratura)da tashkil etilib, mutaxassisliklar yo‘nalishlari bo‘yicha xalq xo‘jaligining turli tarmoqlariga oliy ma’lumotli mutaxassislarni davlat grantlari negizida va pullik-shartnomaviy asosda

tayyorlaydi.

Олий таълим босқичлари:

Бакалавриат - мутахассисликлар йўналиши бўйича фундаментал ва амалий билим берадиган, таълим муддати камида тўрт йил давом этадиган таянч олий таълимдир



Магистратура - аниқ мутахассислик бўйича фундаментал ва амалий билим берадиган, бакалавриат негизида таълим муддати камида икки йил давом этадиган олий таълимдир


О'zbekistonda ikki bosqichli tayyorlash tartibi har bir shaxsni ham, jamiyatni ham qanoatlantiradi. Ancha chuqur va maxsus bo'limlar talab qiluvchi lavozimlarda ishlash uchun to'liq oliy ma'lumotga ega mutaxassislar va magistrLAR etishtirilmoqda.

Bakalavr fundamental va amaliy tayyorgarlikka ega bo'lib, ma'lum «jilvirlanishi»dan o'tgandan so'ng mustaqil ravishda yoki oliy o'quv yurtining tegishli kursida, korxonada, tashkilot yoki muassasada o'z ixtisosligi yo'nalishi bo'yicha ommaviy lavozimlarda ishlay oladi. Mutaxassis bo'lib bakalavriyatni tugatsa, uni yaxshi o'zlashtirib tegishli test sinovidan o'tgan va bakalavriat tayyorlashning yo'nalishlaridan biriga kiruvchi kursni o'tgan bitiruvchi hisoblanadi.

Magistr bakalavr darajasidagi mutaxassisdan farqli ma'lum ixtisoslik bo'yicha ta'lim olgan yuqori malakali mutaxassis hisoblanib, u ilm-fan sohasida


va ishlab chiqarishning mas'uliyatli lavozimlarida faoliyat ko'rsatadi. U aspiranturaga kirish huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasida quyidagi turdagi oliy ta'lim muassasalari faoliyat ko'rsatadi (4-chizma):



4-chizma.²² Oliy ta'lim muassasalari turlari

Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori - oliy ma'lumotli kadrlar tayyorlash yo'nalishlari va mutaxassisliklarining tizimlashtirilgan ro'yxatiga asoslangan. Ushbu klassifikatorda quyidagi bilim sohalari mavjud.



Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimi miqdor va sifat jixatidan izchil rivojlanmoqda. Oliy ta'lim muassasalari soni 1991 yilda

²² Чизма муаллиф томонидан Кадрлар тайёрлаш миллий дастури асосида тайёрланди.

52 ta bo'lgan bo'lsa, 2016 yilga kelib ular soni 34,6 foizga oshdi, ya'ni 70 tani, 2017 yil 1 noyabr xolatiga O'zbekiston Respublikasida oliy xarbiy bilim yurtlaridan tashqari 72 ta oliy ta'lim muassasi va 19 ta filiallar mavjud bo'lib, ularning tarkibida 4 ta akdemiya, 7 ta xorijiy oliy ta'lim muassasalarining filiallari, 27 ta universitetlar va 4 ta oliy diniy ta'lim muassasasi hamda filiallar faoliyat yuritmoqda²², ularda 268 mingdan ziyoda talaba ta'lim oladi²³.

(4-jadval)

4-jadval

Oliy ta'limning asosiy ko'rsatkichlari (1991-2016 yy)²⁴

	Oliy ta'lim muassasalarining soni	Talabalar soni(ming kishi)	Professor-o'qituvchilar soni (ming kishi)	Xar bir o'qituvchiga to'g'ri keladigan talabalar soni
1991 y.	52	340,9	...	...
1995 y.	58	192,1	19,9	9,6
2000 y.	61	183,6	18,4	10,0
2005 y.	62	278,7	23,1	12,1
2010 y.	65	274,5	23,0	11,9
2016 y.	70	268,3	23,4	11,2

²² O'zbekiston Respublikasida oliy ta'lim tizimining asosiy ko'rsatkichlari statistikas


²³ Манба: Ўзбекистон Республикаси таълим статистикаси.Нашр этилган: 21/07/2017.

²⁴ Манба: Ўзбекистон Республикаси таълим статистикаси.Нашр этилган: 21/07/2017.


Bugungi kunda O‘zbekistonning oliy o‘quv yurtlarida 23461 ming professor - o‘qituvchi ishlaydi, ulardan 7742 tasi (33 foizi) ilmiy darajalilar, fan doktori 1423 (6 foiz) va 6306 tasi (26,9 foiz) fan nomzodi²⁵.

Олий таълим муассасалари профессор-ўқитувчилари таркиби ва кафедраларнинг илмий салоҳияти

ОТМлар профессор-ўқитувчилар илмий салоҳияти
Умумий сони: 23 461 нафар
Улардан илмий даражалилари салмоғи 33% (7742 нафар)



ОТМлар кафедралари илмий салоҳияти
Кафедралар сони: 1 657 та
Илмий даражага эга бўлмаган кафедра мудирилари сони 132 та



6-rasm. Oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari tarkibi va ilmiy salohiyati.²⁶

O‘zbekiston Respublikasi oliy o‘quv yurti yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan va oliy kasb ta’limining ta’limiy-kasbiy dasturini amalga oshiradigan ta’lim muassasasidir. Oliy o‘quv yurti (OO‘YU) O‘zbekiston Respublikasi tomonidan belgilangan tartibda tashkil etiladi, qayta tuziladi va tugatiladi.

OO‘YU O‘zbekiston Respublikasining «Ta’lim to‘g‘risida»gi qonun, boshqa qonunlar, qonunlar dalolatnomasi, mazkur Nizom hamda oliy o‘quv yurtining Ilmiy kengashi tomonidan tasdiqlangan Ustavga muvofiq faoliyat ko‘rsatadi.

OO‘YU -ta’lim, fan va madaniyat markazi sifatida o‘z maqsadini inson, Vatan va jahon sivilizatsiyasi baxt-saodati yo‘lida haqiqatni anglash, adolat va ezgulikni o‘rnatish deb bilgan professorlar, o‘qituvchilar, hodimlar va talabalarni o‘zida mujassamlashtirilgan ijodiy hamkorlikdir.

²⁵ Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирининг Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида” 2017 йил 20 апрелдаги ПҚ-2909-сон қарори

²⁶ Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирининг Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Олий таълим тизимини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида” 2017 йил 20 апрелдаги ПҚ-2909-сон қарорининг ижроси тўғрисида 2017 йил 24 апрел №244-сон буйруғи

OO‘YUning bosh vazifalari quyidagilardan iborat:

- shaxsning ruhiy, aqliy madaniy va axloqiy rivojlanishga faoliyatning tanlagan sohasi bo‘yicha oliy kasbiy ta‘lim va malakaga bo‘lgan ehtiyojni qondirish;

- jamiyatni O‘zbekiston Respublikasining mustaqillik g‘oyasi, vatanparvarlik, insonning ahloqiy prinsiplarini xurmat qilish ro‘xida tarbiyalangan oliy kasbiy ta‘limga ega bo‘lgan malakali mutaxassislar, yuqori malakali ilmiy va ilmiy-pedagogik kadrlarga bo‘lgan ehtiyojlarni qondirish;

- iqtidorli va o‘qishda faollik kursatayotgan talabalarga kundalik g‘amxo‘rlik va kerakli sharoit yaratib berish;

- fundamental va izlanuvchi, amaliy-ilmiy tadqiqotlarni va boshqa ilmiy-nazariy, tajriba-konstruktorlik ishlarini, jumladan, ta‘lim muammolari bo‘yicha bajariladigan ishlarni tashkil qilish va olib borish;

- o‘qituvchi va mutaxassislarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish;

- umuminsoniy qadriyatlarni to‘plash, saqlash va orttirish;

- aholi o‘rtasida bilimni targ‘ib etish, uning ta‘limiy va madaniy darajasini ko‘tarish.

OO‘YU filiallari, fakultetlar, ixtisoslashgan kollejlari, kafedralar, tayyorlov bo‘limlari, ilmiy tekshirish laboratoriyalari, aspirantura, doktorantura, qo‘shimcha kasbiy ta‘limning o‘quv bo‘limlari, tajriba xo‘jaligi va shu kabi boshqa bo‘limlarga ega bo‘lishi mumkin.

OO‘YU tarkibiga oliy o‘quv yurti tizimi birligi yoki yuridik shaxs maqomiga ega bo‘lgan va belgilangan tartibda tasdiqlanadigan Nizomlar asosida faoliyat ko‘rsatadigan ilmiy tekshirish institutlari, litseylar, gimnaziya, mulkchilikni turli shakllaridagi korxona va tashkilotlar kirishi mumkin.

OO‘YUning tuzilish bo‘linmalarini tashkil etish, oliy o‘quv yurti tomonidan o‘z tobeligiga qarab tegishli vazirlik va idora bilan kelishilgan holda amalga oshiriladi.

Davlat va OO‘YUning filiallari, oliy o‘quv yurti tuzilishidagi va undan tashqaridagi ilmiy tekshirish institutlari va ixtisoslashgan kollejlari, oliy o‘quv

yurti qoshidagi malaka oshirish va qayta tayyorlash institutlari tegishli vazirlik va idoralarning Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi bilan kelishilgan tavsiyalarga muvofiq hukumat tomonidan tashkil etiladi.

Davlat OO'YU tarkibida yoki qoshida davlat korxonalari, muassasalari va tashkilotlarini tashkil etish, jumladan yuridik shaxs maqomiga egalarini ham tegishli vazirlik bilan kelishilgan holda, belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

OO'YU va uning tuzilish bo'linmalari, hamda uning qoshidagi yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan korxona, muassasa va tashkilotlar yagona ta'lim kompleksidir.

O'zbekiston Respublikasi barcha OO'YUlarining birinchi kurslariga talabalarini qabul qilish, test sinovlari asosida amalga oshiriladi. Test sinovlarini o'tkazishda bosh maqsad abiturentlarning bilim darajasni xolisona baholash va ular orasida bilimi bo'yicha eng yaxshilarini oliy o'quv yurtlarida o'qish uchun tanlab olishdir. Respublikada oliy o'quv yurtlari va o'qiydigan talabalar soni 1 - jadvalda keltirilgan.

SHuni ta'kidlash kerakki, oliy kasbiy ta'limning har bir bosqichi, davlat ta'lim andozalari bilan belgilanadigan talabalarni ro'yobga chiqarishni ta'minlovchi ta'limiy xizmatlar majmuasidir. SHuning uchun o'quv yurtlari tarmog'i kengaymoqda, universitet ta'limi rivojlanmoqda. Oliy ta'limda kadrlar tayyorlashni markazlashtirishdan hududiy yo'nalishga o'tkazish ishi olib borilmoqda.

Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim jamiyatning oliy malakali ilmiy va ilmiy-pedagog kadrlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish, shaxsning ijodiy ta'lim – kasb-hunar manfaatlarini qanoatlantirishga qaratilib, oliy o'quv yurtlari va ilmiy-tadqiqot muassasalarida bazaviy doktorantura va doktoranturada ta'lim olish, shuningdek, mustaqil tadqiqotchilik faoliyatini tashkil etish asosida amalga oshiriladi. Oliy o'quv yurtidan keyingi ta'lim bazaviy doktorantura (falsafa fanlar doktori Phd) yoki doktorlik (Doctor of Science) dissertatsiyalarining himoyasi bilan yakunlanadi. O'zbekiston Respublikasi Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan olib borilgan yakuniy davlat attestatsiyasi

natijalari tegishli ravishda bazaviy doktarantura (falsafa fanlar doktori Phd) yoki doktorlik (Doctor of Science) ilmiy darajasi hamda davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi diplomga ega bo'lish huquqini beradi.

Har ikki (bazaviy doktarantura (falsafa fanlar doktori Phd) yoki doktorlik (Doctor of Science) darajada ham maqsad muayyan mutaxassisliklar bo'yicha oliy toifali ilmiy-pedagogik kadrlarni shakllantirishdan iborat.

3.2 O'zbekistonda Oliy ta'lim tizimini yanada isloh qilish va takomillashtirish orqali yoshlar bandligini ta'minlash yo'nalishlari²⁷

Oliy o'quv yurtlarini isloh qilish O'zbekistonda yangi rivojlangan jamiyat qurish bilan chambarchas bog'liqdir. Uni amalga oshirishda biz albatta, namuna sifatida ta'limning xalqaro me'zonalarini olishimiz mumkin. Lekin o'z milliy xususiyatlarimizning barcha qirralarini ham hech bir unutmashimiz shart.

Islohot oliy o'quv yurtlari faoliyatining barcha sohalarini qamrab oladi, shuning uchun ham u tub o'zgarishlar hisoblanadi. Barcha jabhalarda qayta qurish va takomillashtirishni amalga oshirish darkor.

Xususan ta'lim tizimini va uning bosqichli tizimi: universitet ta'limini rivojlantirish, takomillashtirish oliy maktab faoliyatining asosiy sohalarini - ta'lim va ilmiy tadqiqotning mazmuni, shakli va uslubiyatini o'zgartirish, oliy o'quv yurti maqomini sezilarli darajada ko'tarish, lozim bo'ladi. Sotsialistik tizimdagi mansub «Oliy ta'limdagi ixtisosliklar va ixtisoslashuvlar ro'yxati» da 600 ga yaqin nomini uchratish mumkin va ularning har biri bo'yicha mutaxassis tayyorlangan. Ularning diplomiga bitta muayyan ixtisoslik yoki ixtisoslashuv nomi yozilgan. O'sha davrlarda O'zbekiston oliy o'quv yurtlarida 300 ixtisoslik va ixtisoslashuv bo'yicha mutaxassislar tayyorlangan. Tayyorgarlikni tugatgach mutaxassislar o'z ixtisosliklariga mos muayyan ish o'rniga borishlari lozim edi. SHunday deb o'ylangan. Biroq amalda esa butunlay boshqacha hol edi.

²⁷ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 20 апрелдаги “Олий таълим тизimini янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги 2909-сон қарори, Ўзбекистон Республикаси Олий ва ўрта махсус таълим вазирининг Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Олий таълим тизimini янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида” 2017 йил 20 апрелдаги ПҚ-2909-сон қарорининг ижроси тўғрисида 2017 йил 24 апрел №244-сон буйруғи

SHunday qilib xo‘jalik yuritishning va ta’limning mavjud tizimi, ko‘p hollarda mutaxassisni oliy darajada tayyorlamas edi.


Ko‘p bosqichli tizim jahon tajribasida allaqachon o‘zlashtirilgan va amalda muvaffaqiyat bilan qo‘llanmoqda. O‘zbekistonning mustaqil sharoitida u quyidagicha ko‘rinishga ega, ya’ni 600 ga yaqin ixtisoslik va ixtisoslashuv mavjud bo‘lib, oliy o‘quv yurtlarimizda shular bo‘yicha mutaxassislar tayyorlash mo‘ljallangan, lekin ular 103 yo‘nalishga ajratilgan. Bilimning har bir yo‘nalishida shunday sohalar mavjud, ular ettita: tabiiy fanlar va matematika, gumanitar fanlar, sog‘liqni saqlash, ta’lim, texnika-fanlari, qishloq xo‘jalik fanlari, xarbiy ixtisosliklardir.

YAngi turdagi mutaxassislar mojarosida asosiy siymo bo‘lib tayanch oliy ma’lumotga ega bakalavrlar hisoblanadi. To‘rt yil ichida ular gumanitar, tabiiy fanlar va umum ta’lim bo‘limlari bo‘yicha bir qator ixtisosliklarni ham o‘z ichiga olgan muayyan yo‘nalishlarda to‘liq ma’lumot olishlari lozim. Masalan: «qurilish» yo‘nalishi o‘z ichiga 17 ixtisoslikni oladi. «Telekommunikatsiya» ixtisoslikni «Pedagogika»-12 ixtisoslikni, “Ijtimoiy ish” yo‘nalishi - 1ta ixtisoslikni o‘z ichiga oladi va hokazo.

